

Onaxon Jabborova
Gulhayo To'rayeva

HUSNIXAT – SIFATLI TA'LIM ASOSI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Onaxon Jabborova
Gulhayo To'rayeva

HUSNIXAT – SIFATLI TA'LIM ASOSI
O'quv-uslubiy qo'llanma

Toshkent -2024

UDK:

KBK:

Jabborova O.M., To'rayeva G.T./Husnixat – sifatli ta'lim asosi./
O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, "Zebo Prints", 2024., 68 b.

O'quv-uslubiy qo'llanmada Husnixat – sifatli boshlang'ich ta'limning asosi sifatida tahlil qilingan bo'lib, unda asosiy e'tibor mazkur o'quv fanining asoslari, fan vositasida shakllantiriladigan ko'nikmalar, fanning tarbiyaviy omillari va boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida tutgan amaliyoti masalalari tahliliga qaratilgan. Mazkur muammo bo'yicha ilk bor yangi nazariy va metodik tavsiyalar taqdim etilgan.

O'quv-uslubiy qo'llanmada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, magistrantlar, amaliy faoliyatda boshlang'ich sinf o'qituvchilari, murabbiylari, metodistlari va muammo bilan qiziquvchi keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

Loyha rahbari:

Muxamedov Gofurdjon Isroilovich, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, kimyo fanlari doktori, professor.

Mas'ul muharrir:

Mardonov Shukurullo Qo'ldoshevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Po'latova Dildora Turgunovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Umarova Zuhra Abduraxmanovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'quv – uslubiy qo'llanma Chirchiq davlat pedagogika universiteti Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. Bayonnomma №

UDK:

KBK:

ISBN:

© Jabborova O.M. va b., 2024 y.
© "Zebo Prints", 2024 y.

MUNDARIJA

Kirish.....	4
1-modul. “Husnixat” o‘quv fanining asoslari.....	6
2-modul. “Husnixat” o‘quv fani shakllantiradigan ko‘nikmalar	17
3-modul. “Husnixat” o‘quv fanining tarbiyaviy omillari.....	27
4-modul. “Husnixat” o‘quv fanini o‘qitish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	33
5-modul. “Husnixat” o‘quv fani amaliyoti.....	44
Xulosa.....	54
Adabiyotlar ro‘yxati.....	62
Glossariy.....	64

Kirish

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida barcha masalalar qatorida “boshlang‘ich ta’limda sifat ko‘rsatkichlariga erishish” vazifasi qo‘yilgan. Buning uchun quyidagi ikki muhim ishlarni amalga oshirish belgilanganligini ta’kidlab o‘tish lozim:

birinchidan, aholining ehtiyojlariga mos boshlang‘ich ta’limni amalga oshirish;

ikkinchidan, xalqaro ta’lim standartlariga mos boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish.

Mazkur masalalarni hal etish jarayonida boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarini yangi nazariy, metodik va texnologik yondashuvlar asosida o‘qitish taqozo etiladi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalari hozirgi zamon ehtiyojlari va talablariga mos ravishda tarkib toptiriladi. Bunda ayniqsa, boshlang‘ich ta’limning asos fanlarini belgilab olish va ular vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim, tarbiya va faoliyat tayyorgarligini tarkib toptirish muhim hisoblanadi. Shu jihatdan “Husnixat” o‘quv fani boshlang‘ich ta’lim fanlarining asoslaridan biridir. Chunki bu fan vositasida boshlang‘ich ta’limning aniq, tabiiy va gumanitar fanlar turkumlariga o‘quvchilar olib kiriladi.

“Husnixat” boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarining negizlaridan biri sifatida boshlang‘ich ta’limning “tashrif qog‘ozi” hisoblanadi. Bunda lotincha brend so‘zining ma’nosini aynan ana shunday tushunish to‘g‘ri bo‘lib, boshlang‘ich ta’limda mazkur fan asoslarini o‘zlashtirish bilan o‘zga fanlarning mazmun-mohiyatini o‘rganish ta’minlanadi. Buning bir necha sabablari bor:

birinchidan, “Husnixat” milliy pedagogikamiz tajribasida asrlar davomida boshlang‘ich ta’limning eng muhim o‘quv fani bo‘lib kelmoqda;

ikkinchidan, “Husnixat” o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nafaqat yozma, balki og‘zaki nutqi ham tarkib toptirilib, boshqa fanlar uchun asos yaratuvchi fandir;

uchinchidan, xorijlik pedagog olimlar ham mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonida amalda bo‘lib kelayotgan “Husnixat” o‘quv fani va uning ahamiyatini e’tirof etgan.

Bularning barchasi “Husnixat” o‘quv fanini mohiyatini idrok etish, oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mazkur fanni o‘qitish metodologiyasi bilan qurollantirishni va amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ushbu fanni o‘qitish bo‘yicha tajribalarini rivojlantirib borishni taqozo etadi.

Shu jihatdan mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanmada “Husnixat” o‘quv fanining asoslari, bu fan vositasida shakllantiriladigan ko‘nikmalar majmui, fanning tarbiyaviy omillari va ushbu o‘quv fanining amaliyoti masalalari mazkur monografiyada tahlil qilindi. Risolani tayyorlash jarayonida boshlang‘ich ta’limda sifat ko‘rsatkichlariga erishishning ko‘rinishlaridan biri “Husnixat” o‘quv fani ekanligini asoslab berishga e’tibor qaratildi.

O‘quv-uslubiy qo‘llanmaga doir fikr va mulohazalariningizni kutib qolamiz.

1-modul. “Husnixat” o‘quv fanining asoslari

Reja:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chiroyli va tez yozuvga o‘rgatish
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ifodali va tez o‘qishga o‘rgatish
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yozma va og‘zaki nutqqa o‘rgatish

Tayanch tushunchalar:

Husnixat o‘quv fani, chiroyli va tez yozish, ifodali va tez o‘qish, yozma va og‘zaki nutq, bilim va malaka.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan boshlang‘ich ta’limda sifat ko‘rsatkichlariga erishish vazifasi ijrosi jarayonida har bir o‘quv fanining samaradorligini ta’minlash muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limning muhim o‘quv fanlaridan biri “Husnixat” dir. Bu o‘rinda e’tiboringizni ana shu o‘quv fanining asoslari tahliliga tortamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chiroyli va tez yozuvga o‘rgatish. “Husnixat” o‘quv fanining asosiy masalalaridan biri boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining alifbo savodxonligini amalga oshirish va uning assosida ularni chiroyli va tez yozish ko‘nikmasi bilan qurollantirishdan iborat.¹

Bunda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- a) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining alifbo savodxonligini tarkib toptirish;
- b) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chiroyli yozuvga o‘rgatish;
- v) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tez va sifatli yozuvga o‘rgatish.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan bolalarni alifboga o‘rgatish va ularni mакtabga tayyorlash ishlari amalga oshirilmoqda. Biroq, boshlang‘ich ta’lim jarayonida, ayniqsa, 1-sinfda o‘quvchilar alifbo savodxonligiga o‘rgatilishi muhim vazifalardan hisoblanadi. Unga ko‘ra, har bir o‘quvchi lotin grafikasidagi o‘zbek alifbosining barcha harflarini o‘zlashtirishi,

¹ Каранг: Ҳасанбоев Ж., Тўракулов Х., Хайдаров М., Ҳасанбоева О., Усмонов Н. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: “Фан ва технология”. 2009. Мирхабиб

harflarning katta, kichik va bosma yozilishini o'rganishi, alifboning unli va undosh tovushlarga bo'linishi bo'yicha yetarli darajada bilimga ega bo'lishi va bu borada individual ko'nikmani egallashi taqozo etiladi. Bunday yondashuv alifbo savodxonligining asosini tashkil qiladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilari 1-sinfda alifbo savodxonligining barcha jihatlari bilan o'quvchilarini tanishtirish ishiga alohida e'tibor beradi va bu ish 1-sinfning birinchi choragi davrida amalga oshiriladi. Bunday tajriba XX asrning boshlaridan boshlab amalga oshirib kelinmoqda. Agar boshlang'ich sinf o'quvchisi alifbo savodxonligi ko'nikmasiga ega bo'lmasa, u keyingi o'qish va faoliyatida murakkabliklarga duch keladi. Shu sababli jadid pedagoglari yetakchisi Mahmudxo'ja Behbudi (1875-1919) "Savod" darsligida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini oshirish alifboni o'zlashtirishdan boshlanishi va unda ayniqsa ona tili xususiyatlaridan kelib chiqib yondashishni asoslab bergen edi.² Bunday ko'rsatmaga amal qilish bugungi kunda ham davom etmoqda va XX asrda o'zbek pedagog olimlari alifbo savodxonligi bo'yicha muhim nazariy va metodik tavsiyalarni ishlab chiqganligini ham eslatib o'tish joiz. Shu sababli mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'quvchilari alifbo savodxonligi masalasida nisbatan ijobiy ko'rsatkichga ega ekanligi bilan dunyo mamlakatlari tengdoshlari orasida ajralib turadi. Kezi kelganda eslatib o'tish joizki, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan millatlar va elatlarning farzandlari ham 1-sinfda o'z ona tilisida alifbo savodxonligini o'rganadi, shundan keyin davlat tili bo'lgan o'zbek tili asoslari bo'yicha bilimlarni o'zlashtiradi. Bunday yondashuv mamlakatimizda yetti tilda umumiyligi o'rta ta'limni amalga oshirish tizimini tarkib toptirdi. Buning natijasida 6-7 yoshli o'quvchilarning barchasi alifbo savodxonligiga ega bo'lmoqda. Bunda "Husnixat" ("Kalligrafiya") o'quv fanlarining alohida o'rin tutishini ta'kidlab o'tish lozim.

² Қаранг: Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. – Т.: "Маънавият". 1998

“Husnixat” o’quv fanining muhim vazifalaridan biri boshlang‘ich sinf o’quvchilarini chiroyli yozuvga o’rgatishdir. Unga ko‘ra, har bir boshlang‘ich sinf o’quvchisi harflarni, tovushlarni va iboralarni aniq hamda o’qimishli shaklda yozishi taqozo etiladi. Chiroyli yozish malakasida so’zlarni uzmasdan bir lahzada o’zaro bog‘liqlikda yozish muhim o’rin tutadi. Bunda ayniqsa, so’zlardan bo‘g‘in ko‘chirishda imlo qoidalariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan imlo qoidalariga ko‘ra, bo‘g‘in ko‘chirilayotgan so‘zning har ikki jihatni ham ma’no anglatishi va ko‘p hollarda unli tovushlar asosida bo‘g‘in ko‘chirishga e’tibor berish metodik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o’quvchisini chiroyli yozuvga o’rgatish har bir boshlang‘ich sinf o’qituvchisining muhim pedagogik vazifasi sifatida qabul qilingan. Chunki bugungi kunda kompyuterli dastur asosida mavzularni aks ettirishda aynan bo‘g‘in ko‘chirish masalasi bo‘yicha muammo mavjudligini e’tirof etish kerak. Negaki, kompyuter o’quv-texnik vositasi o‘z dasturiga tayangan holda so’zlarni bo‘g‘inga ko‘chiradi va bu imlo qoidalariga zid hisoblanadi. Shu sababli tajribali boshlang‘ich sinf o’qituvchilari aynan yozuv vositasida o’quvchilarning bo‘g‘in ko‘chirish, tovushlarni to‘g‘ri ifodalash va so’zlarni to‘g‘ri yozish asosida chiroyli yozishga o’rgatadi. Shu ma’noda “Husnixat” o’quv fanining mazkur vazifasi e’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’limning muhim asoslaridan birini tashkil qiladi. Savol tug‘iladi: yuqori sinflarda nega o’quvchilarning yozuvi o‘zgaradi? Chunki bunda o’qituvchilar tomonidan o’quvchilarning chiroyli yozish malakasi nazorat qilinmaydi. Shu sababli keyingi paytlarda “Ona tili va o‘qish savodxonligi” hamda “Ona tili va adabiyot” o’quv fanlari vositasida o’quvchilarning chiroyli yozuv ko‘nikmasini rivojlantirib borishga e’tibor berilmoqda. Bundan maqsad boshlang‘ich ta’lim jarayonida erishilgan chiroyli yozuv ko‘nikmasini rivojlantirib borishdir.

“Husnixat” o’quv fanining yana muhim vazifalaridan boshlang‘ich sinf o’quvchilarining tez va sifatli yozuv malakasini tarkib

toptirishdan iborat. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari muayyan so'zlar yoki gaplarni ma'lum bir vaqt me'yori asosida tez yozishni o'zlashtirishi hamda sifatli yozuv malakasini egallashi taqozo etiladi. Bunda sifatli yozuv deganda so'zlarni to'g'ri ifodalash va ularni o'qishli shaklda tarkib toptirish nazarda tutiladi. Tez va sifatli yozishga o'rgatishdan maqsad o'quvchilarining fikrlash va o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Chunki fiziolog olimlarning asoslab ko'rsatishicha, tez va sifatli yozish jarayonida bolaning miya qobig'i aniq ishlaydi va uning barmoqlari, mushaklari hamda xatti-harakat muskullari birgalikda harakat qiladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida, ayniqsa, 1-sinfda o'quvchilarini tez va sifatli yozishga o'rgatish bilan ularni fiziologik jihatdan rivojlantirishga ham erishilishini alohida eslatib o'tish lozim. Bu o'rinda "Husnixat" o'quv fani Pedagogika, Fiziologiya va Psixologiya o'quv fanlari qonuniyatlarini o'zida mujassam etadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroyli va tez yozuvga o'rgatish boshlang'ich sinf o'quvchilarining eng asosiy vazifalaridan birini tashkil qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ifodali va tez o'qishga o'rgatish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozuv savodxonligi va ko'nikmasi ularni ifodali va tez o'qishga o'rgatish jarayoni bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Unga ko'ra, quyidagilarga e'tibor berish muhimdir:

- a) boshlang'ich sinf o'quvchilarini ifodali o'qishga o'rgatish;
- b) boshlang'ich sinf o'quvchilarini tez o'qishga o'rgatish;
- v) boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qiganlarini tushunishga o'rgatish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ifodali o'qishga o'rgatish "Husnixat" o'quv fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, o'quvchilar avvalo so'zlarni bo'g'inlab o'qishga ko'niktiriladi, shundan keyin tadrijiy ravishda mustaqil so'zlarni o'zaro bog'lab o'qishga o'rgatiladi. Bunda albatta chiroyli va sifatli yozish vositasida

ifodali o'qishga e'tibor qaratiladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisi o'zi yozgan so'z yoki matnni ravon o'qishi hamda o'zgalar tomonidan o'qishi uchun aniq ifodalashi kerak. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchisining nafaqat yozuv malakasi, balki ifodali o'qish malakasi ham tarkib topadi. Shu sababli tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari chiroyli va tez yozish vositasida ularni ifodali o'qish malakasini ham tarkib toptirishga asosiy e'tiborni qaratishadi. Bunday tajriba oliy pedagogik ta'lif jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilariga metodik kompetensiya sifatida taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan aynan ifodali o'qish masalasida va bunday ko'nikmani boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarkib toptirishda tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual tajribalariga tayanish amaliy jihatdan kutilgan samarani beradi.

"Husnixat" o'quv fanining navbatdagi vazifalaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarini tez o'qishga o'rgatishdan iborat. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilari so'z yoki matnni muayyan vaqt me'yorida tez o'qish ko'nikmasini o'zlashtirishi kerak. Chunki bilim va ko'nikma asoslarini egallashda aynan tez o'qish ko'nikmasi ham muhim o'rinni tutadi. Bunga sabab keyingi paytlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtirishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning ko'payib borayotganligidir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilari tez o'qish ko'nikmasini o'zlashtirish bilan bir qatorda vaqt me'yordan unumli foydalanish malakasiga ham ega bo'ladi. Bu ko'nikma keyinchalik o'quvchilarning butun faoliyati davomida amaliy kasb etadi. Misol uchun, mashhur jadid arbobi Abdulla Qodiri (1894-1938) yuz sahifali matnni 10 daqiqa ichida o'qiganligini o'zining kichik hikoyalaridan birida ta'kidlab o'tadi.³ Bunga sabab Abdulla Qodiriyning boshlang'ich ta'lifni chuqur o'zlashtirganligi bo'lgan. Shuningdek, mashhur fizik olim Albert Eynshteyn (1888-1957) ming sahifali matnni 1 soat ichida o'qishi to'g'risida o'zining esdaliklarida

³ Қаранг: Абдулла Қодирий. Кичик хикоялар. – Т.: "ЎзДавнашр". 1957

aytib o'tgan.⁴ Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tez o'qish ko'nikmasini shakllantirish bilan ularni keng ma'lumotlar olish jarayoniga tayyorlash ishi amalga oshiriladi. Bu ayniqsa, innovatsion jamiyat sharoitida ma'lumotlarning ko'pligi bilan bog'liq hodisa bo'lib, unda yangi ma'lumotlarni muntazam o'zlashtirib borish bevosita tez o'qish ko'nikmasi bilan amalga oshiriladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning tez o'qish ko'nikmasini shakllantirish ishi bilan muntazam shug'ullanadi va unda ta'kidlab o'tilganidek, yozuv asosiy vosita hisoblanadi.

"Husnixat" o'quv fani sifatli yozuv vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qiganlarini tushunish ko'nikmasini ham tarkib toptiradi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlari yozgan so'z va matnlarning ma'nosini tushunishi, o'quv adabiyotlaridagi ma'lumotlarni tez anglashi taqozo etiladi. So'zlarning ma'nosini tushunishda ularning negiz va kesimlari bo'yicha qoidalar o'zlashtiraladi. Chunki har bir so'z o'zak asos va qo'shimcha tovushlardan iborat. O'zbek tilidagi ko'pgina so'zlar bir o'zakli hisoblanadi. Masalan, "Vatan" so'zining o'zagi bitta bo'lib, bunda tan so'zi o'zak va qo'shimchasi izohlovchi vazifani bajaradi. Shu ma'noda Vatan so'zining ma'nosini yagonalik degan mazmunni anglatadi. Bunday jarayon vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilari tadrijiy ravishda so'zlarni va matnlarni o'qib tushunishga o'rgatib boriladi. Agar so'zning ma'nosini o'quvchi tez tushuncha, uning yozuvi chiroyli bo'ladi va ifodali o'qish ko'nikmasi rivojlanadi. Shu jihatdan "Husnixat" o'quv fani har bir so'z ustida ishlashi bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, hozirgi alifbomizdagi muayyan harflarning bosma shakllarini yozishni takomillashtirishga ehtiyoj bor. Masalan, kompyuter dasturi vositasida "O" harfini yozishda uch harakat amalga oshirilishi o'quvchilar uchun murakkablik tug'diradi. Shuningdek, lotin yozuvidagi "Q", "NG" tovushlarini yozishda ham

⁴ Қаранг: Альберт Эйнштейн. Избранное произведение. – М.: "Радуга". 1994

kompyuter dasturi asosida bir necha harakatlarni amalgalash oshirish taqozo etiladi. Shu sababli bu murakkablikdan qutilish uchun kompyuterli dasturni takomillashtirish va boshlang'ich sinf o'quvchilarini aynan yozuv asosida o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasiga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, "Husnixat" o'quv fani vositasida yozuvga asoslangan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ifodali va tez o'qish ko'nikmasini tarkib toptirish muhim vazifalardan biridir. Bu masalalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozma va og'zaki nutqqa o'rgatish. "Husnixat" o'quv fanining tayanch vazifalaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozma va og'zaki nutqqa o'rgatish hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega:

- a) boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozma nutqqa o'rgatish;
- b) boshlang'ich sinf o'quvchilarini og'zaki nutqqa o'rgatish;
- v) boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma va og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirib borish.

"Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozma nutqqa o'rgatiladi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroyligi yozuv vositasida o'z fikrlarini aniq va yorqin ifodalashi kerak. Bunda ular so'zlarni to'g'ri ishlatish, urg'ularni to'g'ri qo'yish va harflar hamda tovushlarni to'g'ri ifodalash bilan yozma nutqqa ko'niktiriladi. Yozma nutqning shakllantirilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va o'z fikrini ifodalash ko'nikmasini tarkib toptiradi. Agar boshlang'ich sinf o'quvchisi o'z fikrini yozma ifodalab bera olmasa, u bilan individual mashg'ulotlar amalgalash oshiriladi. Chunki yozma nutq shaxsning butun faoliyati davomida kerak bo'ladigan pedagogik ko'nikmalardan biri hisoblanadi. Bunday ko'nikmani shakllantirish jarayoni milliy pedagogikamiz tarixida jadid ma'rifatparvarlari tomonidan boshlab

berilganligini eslatib o'tish joiz. Misol uchun, jadid ma'rifatparvar pedagogi Abduqodir Shakuriy (1873-1936) 1903 yili yozilgan "Usuli savod" alifbo kitobining asosiy qismida o'quvchilarining yozma nutqini shakllantirishga yo'naltirilgan matnlarni berishga asosiy e'tiborni qaratgan.⁵ Shu tariqa boshlang'ich ta'lim metodikasida o'quvchilarining yozma nutqini shakllantirish jarayoni bugungi kunga qadar davom etib kelayotganligini eslatib o'tish joiz. Yozma nutq nafaqat o'quvchilarining mustaqil fikrini ifodalashga, balki ularning tushunish ko'nikmasini rivojlan Tirishda ham muhim o'rin tutadi.

"Husnixat" o'quv fanining navbatdagi muhim vazifalaridan biri chiroyli va ifodali yozish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini shakllantirishdan iborat. Unga ko'ra, har bir boshlang'ich sinf o'quvchisi harflar va tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishi, o'z fikrini ravon va tushunarli ifodalashi, so'zlarni jarangdor qilib yetkazish va ma'noli so'zlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz organlari rivojlanish jarayonida bo'ladi va aynan boshlang'ich ta'lim jarayonida ularni og'zaki nutqqa o'rgatish qulay kechadi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ovozi ham sayqallanadi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish natijasida chiroyli so'zlash ko'nikmasi tarkib topadi va o'zgalarda estetik munosabatni bildirish harakatlarini keltirib chiqaradi. Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilar og'zaki nutq ko'nikmasini to'g'ri egallaydi va keyinchalik fiziologik rivojlanish hamda pedagogik nazoratning sustligi sababli ularning talaffuzida o'zgarishlar yuzaga keladi. Shu sababli boshlang'ich ta'limdan keyingi ta'lim bosqichi jarayonida o'quvchilar bilan ifodali va badiiy o'qish mashg'ulotlarini o'tkazishga tajribali o'qituvchilar asosiy e'tiborni qaratishadi. Bunga sabab o'quvchilarining og'zaki nutq ko'nikmasini kutilgan darajada saqlab qolishdir. Hayotiy tajriba shuni ko'rsatadiki, og'zaki nutq ko'nikmasiga ega shaxs suhbati kishiga huzur bag'ishlaydi va bu

⁵ Қаранг: Абдуқодир Шакурий. Танланган асарлар. – Т.: "Маънавият". 2007

ko'nikma aynan yozuv vositasi amalga oshirilishi kutilgan samarani beradi.

"Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarri rivojlantirib boriladi. Bunda notanish so'zlarni yozish va ularning ma'nolarini tushunish, o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, so'z ustida ishslashga o'rgatish va fikrlarini yozma hamda ifodalab berishga ko'niktirish metodikasiga tayaniladi. Shu jihatdan mazkur fanning amaliy jihatlari aynan o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirib borishga yo'naltiriladi. Buning uchun har bir o'quvchi bilan individual ishslash taqozo etiladi. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari har bir o'quvchi bilan yozma va og'zaki nutq ustida butun boshlang'ich ta'lim jarayonida ishlaydi. Buning natijasida 7-11 yoshli o'quvchilarning yozma va og'zaki nutq qo'nikmalarri tadrijiy rivojlantirilib borishga erishiladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozma va og'zaki nutqqa o'rgatish "Husnixat" o'quv fanining amaliy asoslaridan birini tashkil qiladi. Bu masalalar ham oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan chuqr o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Husnixat" o'quv fanining mazkur asoslarini quyidagicha tizimda idrok etish taqozo etiladi:

- o'quv fanining ta'limiy asosga ega ekanligi;
- o'quv fanining tarbiyaviy asosga ega ekanligi;
- o'quv fanining amaliy asosga ega ekanligi.

Mazkur o'quv fanining *ta'limiy asosini* davlat ta'lim standartlari va talablari, o'quv reja va dasturlari hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasida belgilangan ko'nikmalar majmui tashkil qiladi. Bu asoslarga asosan ushbu o'quv fani asoslari oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtiriladi va o'quv fani boshlang'ich sinf o'quvchilariga amaliy

faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi. Shu sababli o'quv fanining oliy pedagogik ta'lismuassasasi va umumiy o'rta ta'lismuassasidagi o'quv rejalari, dasturlari hamda o'quv adabiyotlari materiallari uyg'un tarzda tashkil topgan.

Ushbu o'quv fanining *tarbiyaviy asosga* ega ekanligi husnixat ko'nikmasi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy ongi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv fazilatlarini shakllantirishi bilan ahamiyatga molikdir. Bunda "Umumiy ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" asosida o'quv fani vositasida o'quvchilarda estetik ruh, estetik tuyg'u va estetik didini shakllantirishi bilan muhim o'rinni tutadi. Aynan mana shu tarbiyaviy fazilatlar va ko'nikmalarni boshlang'ich sinf o'quvchilarida bevosita "Husnixat" o'quv fani vositasida shakllantirishning muhim jihatni shundaki, bunda axloqiy va estetik tarbiya turlarining uyg'unlashgan shakliga ega bo'linadi.

"Husnixat" o'quv fanining *amaliy asoslari* bu boshlang'ich sinf o'quvchilarini sifatli yozuv va sifatli o'qish ko'nikmasi vositasida ularni keyingi faoliyatga tayyorlash bilan belgilanadi. Chunki sifatli yozuv ko'nikmasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining fiziologik va jismoniy rivojlanishi uchun asos bo'lsa, sifatli o'qish ko'nikmasi esa ularning ichki ma'naviy olamida shaxs sifatidagi sifatlarning tarkib topishi bilan muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli mazkur o'quv fanining boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida tutgan amaliy asoslari boshqa boshlang'ich ta'lismi o'quv fanlarining amaliy asoslari bilan bevosita bog'liqlik hamda ularning negizlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli mazkur amaliy asoslarni o'zlashtirish har bir boshlang'ich ta'lismi mutasaddilari uchun zaruriyatlardan biridir.

Diqqat qilinsa, "Husnixat" o'quv fanining ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy asoslari bevosita ushbu fanni o'qitish asoslarining aniq namoyon bo'lish jihatlarini belgilaydi. Aynan mana shunday

omillarga nisbatan biz mazkur o'quv fanini boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining "tashrif qog'ozi" sifatida qabul qilamiz.

Shunday qilib "Husnixat" o'quv fanining asoslarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida chiroyli va tez yozish, ifodali va tez o'qish hamda yozma hamda og'zaki nutqqa o'rgatish ko'nikmalarini tarkib toptirish tashkil qiladi. Bu vazifa eng muhim pedagogik masalalardan biri bo'lib, aynan mana shu ko'nikmalar ta'lim oluvchilarning butun faoliyati davomida qo'l keladi. Shu jihatdan mazkur masalalarda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual metodikalarini haftalik va pedagogik amaliyot davrida chuqur o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroyli va tez yozuvga o'rgatishning asoslari nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ifodali va tez o'qishga o'rgatish nimalarga tayanadi?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozma va og'zaki nutqqa o'rgatish asoslarini nimalar tashkil qiladi?
4. Chiroyli va tez yozish, ifodali va ravon o'qish hamda yozma va og'zaki nutqqa o'rgatish asoslarini o'zlashtiring

2-modul. “Husnixat” o‘quv fani shakllantiradigan ko‘nikmalar

Reja:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida “Husnixat” o‘quv fani vositasida kommunikatsion ko‘nikmalarni shakllantirish
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida “Husnixat” o‘quv fani vositasida kollabaratsiya ko‘nikmalarni shakllantirish
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida “Husnixat” o‘quv fani vositasida kretisizm ko‘nikmasini shakllantirish

Tayanch tushunchalar:

Husnixat, ko‘nikma, kommunikatsiya, kollabaratsiya, kretisizm, bilim, tushuncha, shakllantirish, tajriba.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limi o‘quv jarayonini va uning samaradorligini namoyon qiluvchi o‘quv fanlari bo‘yicha aniq ko‘nikmalarga ega bo‘lish muhim hisoblanadi. Bunda “Husnixat” o‘quv fani shakllantiradigan ko‘nikmalar bo‘yicha *aniq tasavvurga* ega bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur o‘rinda ana shu masalaning tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

Kezi kelganda shuni ta’kidlash lozimki, mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim bosqichi, umuman umumiyligi o‘rtaligida muassasalariga 2023 – 2024 o‘quv yildidan boshlab Buyuk Britaniyaning Kembrij kolleji pedagog olimlari tomonidan ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan va XXI asrning dastlabki choragida e’tirof qilingan 4 K modeli bo‘yicha o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish amaliyotga joriy qilindi. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko‘ra “Husnixat” o‘quv fani asosida o‘quvchilarda shakllantiriladigan ko‘nikmalarning 4 K modeli ko‘nikmalari vositasida tahlil qilib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ko‘nikmalar quyidagilardan iborat:

- 1) kommunikatsiya ko‘nikmasi;

- 2) kollabaratsiya ko'nikmasi;
- 3) kreativlik ko'nikmasi;
- 4) kretisizm ko'nikmasi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan mamlakatimizda 2023-2024 o'quv yili bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quv Rejasiga berilgan tushuntirish xatida mazkur ko'nikmalarning ma'nosi quyidagicha talqin qilingan: "2023-2024 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning quyidagi zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratiladi:

kollabaratsiya – o'quvchilarni guruhda jamoa bo'lib ishlash layoqatini shakllantirish;

kommunikativlik – o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish;

creativer tafakkur – o'quvchilarda o'z maqsadiga erishish uchun yangi xarakatlar, yangi g'oyalar va muammolarni hal etish ko'nikmasini shakllantirish;

kritik tafakkur – o'quvchilarda o'zining mustaqil fikri va masalalarga nisbatan tanqidiy yondashuvini tarkib toptirish".⁶

E'tibor berilsa, bu zamonaviy ko'nikmalar o'quvchilarning aqliy, ruhiy va estetik imkoniyatlariga mos ravishda talqin qilingan. Biroq, ushbu ko'nikmalarning mazmuni nisbatan o'z ifodasini topgan. Shu sababli mazkur 4 K modeli bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishda "Husnixat" o'quv fanining tayanchlari tahliliga e'tiboringizni tortamiz:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Husnixat" o'quv fani vositasida kommunikatsion ko'nikmalarini shakllantirish. Mazkur o'quv fani bevosa boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikatsion ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rinni tutadi. Buning uchun quyidagi ikki asosga tayanadi:

⁶ Ўзбекистон Республикаси 2023-2024 ўқув йилида умумий ўрта таълим муассасаларининг асос ўқув фанлари режасига Тушунтириш хати. // "Маърифат" газетаси, 2023 йил 1 сентябрь сони.

a) boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lif sharoitidan foydalanish ko'nikmasini tarkib toptirish;

b) boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lif muhitim imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikmasini tarkib toptirish.

“Husnixat” o'quv fani boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lif sharoitidan foydalanish ko'nikmasini tarkib toptirishda asosan mavjud amaliy jihozlar va imkoniyatlarga tayanadi. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lif maktablarida mavjud bo'lgan turli jihozlar, mustaqil ishlanmalar yaratiladigan buyumlar, materiallar va zaruriy ashyolarning mavjudligi e'tibordan soqit qilinmasligi kerak. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilari mazkur o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida mazkur o'quv qog'ozlari, buyumlar, jihozlar va materiallardan foydalanadi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2023 yil 22 dekabrdagi yig'ilishida so'zlagan Nutqida “husnixat san'atini tiklash va buning uchun qadimgi maxsus Samarqand qog'ozini ishlab chiqishni yo'lga qo'yish” tashabbusini ilgari surdi. Buning vositasida kelgusida ta'lif oluvchilarning husnixat san'ati bo'yicha malakali shaxslar bo'lib yetishi va ularning tarbiyasida yangi bosqichga erishish samaradorligi mo'ljallanmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilari 2024-2025 o'quv yilidan boshlab “Husnixat” o'quv fanini o'zlashtirishda chuqurlashtirilgan ta'lif olish va mazkur o'quv fanining mashg'ulotlarida eng zaruriy maxsus ashyolardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu hol ushbu o'quv fanining kommunikatsiya, ya'ni ta'lif sharoitidan foydalanish bo'yicha o'quvchilarning ko'nikmasini shakllantirish amaliyotini ko'rsatadi.

Kommunikatsiya ko'nikmasining eng muhim asoslardan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarida mavjud ta'lif muhitidan oqilona foydalanish ko'nikmasini tarkib toptirishdan iborat. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari sinfdagi ta'lif muhitini vositasida o'quv fanini chuqurlashtirilgan holda o'zlashtirish bilan o'zlarining estetik madaniyatini tabiiy rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu

sababli 2024-2025 o'quv yilidan boshlab barcha o'quv fanlari qatorida "Husnixat" o'quv fani mashg'ulotlarini bevosita sinf va maktab muhitining yangi imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshirish mo'ljallanayotganligini eslatib o'tish joiz. Bunda asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarining nafaqat chiroyli yozuv va sifatli o'qish ko'nikmasini talab darajasida shakllantirish, balki ularda sinf va maktabdagi mavjud muhitdan foydalangan holda husnixat san'atini egallah sharoitlari ham yaratiladi. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu o'quv fani vositasida o'ziga xos layoqatli ko'nikmalarning tarkib topishi yuzaga keladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Husnixat" o'quv fani vositasida kommunikativ, ya'ni ta'lim sharoiti va muhitidan oqilona foydalanish ko'nikmasini shakllantirish mazkur o'quv fanining eng muhim amaliy tayanchlaridan birini tashkil qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Husnixat" o'quv fani vositasida kollabaratsiya ko'nikmalarni shakllantirish. Kollabaratsiya ko'nikmasi asoslarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida quyidagi ko'nikmalarni tarkib toptirish tashkil qiladi:

- a) boshlang'ich sinf o'quvchilarida guruh bo'lib ishslash ko'nikmasini tarkib toptirish;
- b) boshlang'ich sinf o'quvchilarida sinflar miqyosida ishslash ko'nikmasini tarkib toptirish.

"Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida guruh bo'lib ishslash ko'nikmasini tarkib toptirish muhim amaliy vositalardan biridir. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kichik guruhlarga bo'linib, chiroyli yozuv va sifatli o'qish ko'nikmalarini egallah amaliy mashg'ulotlarida ishtirok etadi. O'quvchilarning guruh bo'lib ishslash jarayonida bir-birlaridan chiroyli yozish ko'nikmasini o'zlashtiradi va guruhdagi ifodali o'qish ko'nikmasiga ega o'quvchidan o'r ganadi. Shu sababli Yevropa mamlakatlari davlatlarida o'quvchilarning guruh bo'lib ishslash metodikasiga asosiy e'tibor qaratiladi. Chunki o'quvchilar guruh bo'lib ishslash jarayonida

nafaqat chiroyli yozuv va ifodali o'qish ko'nikmasini, balki guruhda faoliyat ko'rsatish malakasini ham o'zlashtiradi. Bunda mazkur o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, harflarning katta va kichik shakllarini yozishda o'quvchilar guruhi o'zaro yordam vositasida bir-biriga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi pedagogik tajribadan ma'lum. Mazkur asoslarga ko'ra ushbu o'quv fanining bunday imkoniyatlaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy ko'nikmalar majmui tarkib toptiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining guruh bo'lib ishslash ko'nikmasini jamoaparvarlik malakasiga aylantirishda "Husnixat" o'quv fanining imkoniyatlaridan foydalanish ham kutilgan samarani beradi. Bunda ayniqsa, sinf miqyosida jamoa bo'lib chiroyli yozuv va ifodali o'qish ko'nikmasini o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi dastlab doskaga (1-2 sinflarda) murakkab so'zlarning yozilishini ko'rsatadi, o'quvchilar ularni o'zlashtiradi va o'qituvchi tomonidan yozilishi qiyin bo'lgan so'zlarning muayyan harflari tushirib qoldirilgan shaklda yoziladi. O'quvchilar ana shu so'zlarni sinf miqyosida birgalikda to'g'ri yozishni o'zlashtiradi. 3-4 sinflarda o'quvchilarning sinf miqyosida ovoz chiqarib ifodali o'qish ko'nikmasini mashq qilish, ifodali o'qiydigan o'quvchilarning malakasini tushuntirish va ularni namuna sifatida ko'rsatish o'quvchilar uchun amaliy ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, 3-4 sinflarda o'quvchilarning nutqi ravonlashadi va ovozida jarangdorlik paydo bo'ladi. Bunday imkoniyatdan foydalangan holda o'quvchilarda ifodali va chiroyli o'qish ko'nikmasini tarkib toptirish uchun butun sinf birgalikda mashq qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, mazkur o'quv fani vositasida o'quvchilarning guruh bo'lib ishslash va jamoa faoliyatiga ko'nikish ko'nikmasidan iborat bo'lgan kollabaratsiya malakasini tarkib toptirish keng imkoniyatlarni beradi. Bu masalalarning ham oliy pedagogik ta'lim

jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Husnixat" o'quv fani vositasida kreativlik ko'nikmasini shakllantirish. “Kreativ” atamasi lotincha bo'lib, mustaqil va ijodiy fikrlash ma'nolarini anglatadi. Shu jihatdan mazkur o'quv fani vositasida o'quvchilarning kreativlik ko'nikmasini shakllantirish uchun quyidagilarga tayanish kutilgan samarani beradi:

a) boshlang'ich sinf o'quvchilarida yangilikka intilish ko'nikmasini tarkib toptirish;

b) boshlang'ich sinf o'quvchilarida yangi g'oyalarni ifodalash ko'nikmasini tarkib toptirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida “Husnixat” o'quv fani vositasida yangilikka intilish ko'nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bunda 1-2 sinflarda o'quvchilarga kundalik yangiliklar, o'quv biluv jarayonidagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar berib borish va o'quvchilarning yangiliklar to'g'risidagi fikrlarini kuzatib borish kutilgan samarani beradi. 3-4 sinflarda voqeilikdagi yangiliklarni muhokama qilish muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida yangilikka intilish ko'nikmasi tarkib topadi. Shuni eslatib o'tish joizki, aynan yangilik boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash ko'nikmalarini va ularni jismoniy faollashtirish xususiyatlarini yuzaga keltiradi. Bunda “Husnixat” o'quv fani vositasida yangiliklar bo'yicha matnlar tuzish va ularni muhokama qilish kutilgan samarani beradi. Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, agar boshlang'ich sinf o'quvchilarida yangilikka intilish ko'nikmasi tarkib topsa, ularning keyingi faoliyatida bu ko'nikma malakaga aylanadi va eng asosiysi, bilim olishga bo'lgan ishtiyoy quchayadi. Demak, ushbu o'quv fani vositasida yangiliklar bo'yicha axborotlar tayyorlash, matnlar tuzish yoki kichik hajmli xabarlar yozishga o'rgatish o'quvchilarda

kreativlik ko'nikmasini tarkib toptirishning muhim asoslaridan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari kundalik faoliyatda ro'y beradigan yangiliklarni va o'zgarishlarni tez ilg'aydi. Bu hol ularning fiziologik jihatdan rivojlanishi bilan bog'liqdir. Shu ma'noda "Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zlari anglagan va tushungan yangiliklarni yozma va og'zaki ifodalash ko'nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir. Tajriba shuni ko'rsatadiki, 1-2 sinf o'quvchilari yangiliklarni yozma va og'zaki ifodalashda o'qituvchi yoki o'quvchilar guruhining yordamiga ehtiyoj sezadi. 3-4 sinf o'quvchilari esa o'zlari anglagan yangiliklarni muayyan darajada yozma va og'zaki tarzda ifodalay oladi. Shu sababli jamoaviy mashq vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yangiliklarni yozma va og'zaki ifodalashga o'rgatish ularni yangilikka nisbatan intiluvchanligini tarkib toptiradi. Bunday tajriba natijasida o'quvchilarda ijodiy fikrlash yuzaga keladi. Shu sababli jamoa bo'lib ishlash vositasida o'quvchilarda yangiliklarni ifodalash ko'nikmasini teng tarkib toptirish bilan barcha o'quvchilarda ijodiy xususiyatlarini rivojlantirish mumkin. Bu borada misol uchun, Rossiya Federatsiyasida kichik hajmli bayon yoki inshodan keng foydalanishini eslatib o'tish joiz. Bundan asosiy maqsad o'quvchilarda ijodiylik ko'nikmasini tarkib toptirishdir.

E'tibor berilsa, "Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik ko'nikmasini shakllantirish o'ziga xos metodikaga ega. Bu metodika amaliy harakatlarga asoslanganligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli ko'pgina tajribali o'qituvchilar "Husnixat" o'quv fanining bunday amaliyotidan oqilona foydalanishga asosiy e'tiborni qaratishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Husnixat" o'quv fani vositasida kretisizm ko'nikmasini shakllantirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Husnixat" o'quv fani vositasida kretisizm

ko'nikmasini tarkib toptirish ham muhim ahamiyatga ega. "Kretisizm" atamasi lotincha so'z bo'lib, "tanqidiy yondashuv va mustaqil fikrlash" ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kretisizm ko'nikmasini tarkib toptirish uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirish;

b) boshlang'ich sinf o'quvchilarida masalalariga tanqidiy yondashuv ko'nikmalarini tarkib toptirish.

"Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirishning imkoniyatlari juda kengdir. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari avvalo so'z boyligini o'zlashtiradi, ularni chiroyligi yozishga o'rganadi va keyin bir necha matnlardan iborat o'quv materiallarini tez va sifatli o'qish ko'nikmasini o'zlashtiradi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kretisizm ko'nikmasining asosi bo'lgan mustaqil fikrlash xususiyatlari tarkib topadi. Chunki aynan chiroyligi yozish va ifodali o'qish muayyan xatti-harakatlani taqozo etganligi bilan o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiradi. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, ravon va tushunarli yozadigan hamda tez va ifodali o'qiydigan boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashning asoslari tez tarkib topadi. Shu sababli tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari asosiy e'tiborni boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z fikrlarini yozma va og'zaki ifodalash ko'nikmasini shakllantirishga qaratadi. Buning natijasida mazkur o'quv fani imkoniyatlaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularni o'z fikrlarini yozma va og'zaki ifodalashga o'rgatish muhim ahamiyatga egadir. Bunday ko'nikma asta-sekin ularni kitobxonlik, ijod kabi ko'nikmalarining ham tarkib topishiga asos bo'ladi. Demak, ushbu o'quv fanining bunday imkoniyatlaridan oqilona foydalangan holda

boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmasini kutilgan darajada shakllantirishga erishish mumkin.

Bugungi kunda butun dunyo mamlakatlarida, jumladan, mamlakatimizda ta'lif oluvchilarning voqeilikka nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishi masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Chunki tanqidiy munosabatda bo'lish voqeilik jarayonidagi haqiqatni ajratib olishga yo'l ochadi. Shu jihatdan tanqidiy munosabat bu muayyan voqeilik yoki haqiqatlarni inkor etish emas, balki ularga nisabatan ijodiy munosabatda bo'lishdir. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy munosabatni shakllantirish deganda ularni voqeilik jarayoniga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatish tushuniladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyati davomida juda ko'p murakkab holatlarga duch keladi va bunday holatlarni tabiiy qabul qilishga ko'nikish ularning tanqidiy munosabat hamda fikrlashini tarkib toptiradi. Demak, tanqidiy munosabat ko'nikmasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini murakkab vaziyatlar, holatlar va qiyin muammolardan chiqib ketishga o'rgatish omilidir. Shu sababli mazkur masalaga boshlang'ich ta'lif "Tarbiya" o'quv fani o'qituvchilarining diqqat qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Husnixat" o'quv fani vositasida mustaqil fikrlash va tanqidiy munosabatga asoslangan kretisizm ko'nikmasini tarkib toptirish ularni keyingi faoliyatdagi murakkabliklarni hal qilishga o'rgatish bilan bog'liqdir. Bu masala ham oliy pedagogik ta'lif jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Husnixat" o'quv fani vositasida butun dunyo mamlakatlarida amal qilayotgan 4 K modeli bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikatsiya, kollabaratsiya, kreativlik va kretisizm ko'nikmalarini shakllantirishga kutilgan darajada erishish mumkin. Shu sababli butun dunyo pedagog olimlari bu ko'nikmalarning ma'no-mazmuni va ularning ta'lif oluvchilar hayotida tutgan o'rni bo'yicha muhim yondashuvlar va fikrlarga ega

ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.⁷ Demak, mazkur ko'nikmalar bo'yicha pedagog olimlarning yakdil fikrga kelganligi bundan 45 yil avval namoyon bo'lgan. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Husnixat" o'quv fani imkoniyatlaridan foydalangan holda mazkur muhim ko'nikmalarni zamonaviy ehtiyojlar va yondashuvlar asosida hamda innovatsion metodikalarga tayangan holda tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir. Biz bu o'rinda ushbu o'quv fanining keng imkoniyatlarga ega ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tamiz.

Shunday qilib "Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyati mavjud. Buni boshlang'ich ta'lim muammolari bilan shug'ullanadigan har bir kishi idrok etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Husnixat" o'quv fani vositasida kommunikatsion ko'nikmalarni shakllantirish asoslari nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Husnixat" o'quv fani vositasida kollabaratsiya ko'nikmalarni shakllantirishning negizlarini nimalar tashkil qiladi?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Husnixat" o'quv fani vositasida kretisizm ko'nikmasini shakllantirish omillari nimalardan iborat?
4. Kommunikatsiya, kollabaratsiya va kretisizm ko'nikmalari asoslari bo'yicha taqdimot tayyorlang.

⁷ Қаранг: Коллектив авторов. Философский словарь. М.: Ипл. 1984. – С. 150; 161; 228.

3-modul. “Husnixat” o‘quv fanining tarbiyaviy omillari

Reja:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini “Husnixat” o‘quv fani vositasida fazilatli bo‘lishga tayyorlash.
2. “Husnixat” o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intizomli bo‘lishga tayyorlash.
3. “Husnixat” o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini murakkab vaziyatlarga tayyorlash

Tayanch tushunchalar:

Tarbiya, fazilat, intizom, tushuncha, yondashuv, o‘zlashtirish, bilim, yozuv, o‘qish, ko‘nikma, malaka.

Mamlakatimizda sifatli boshlang‘ich ta’lim ko‘rsatkichlariga erishish jarayonida o‘quvchilarining tarbiyasini amalga oshirish ham dolzarb hisoblanadi. Buning uchun boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarining imkoniyatlaridan keng foydalanish taqozo etiladi. Bunda avvalo boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantiriladigan tarbiyaviy fazilatlar va ko‘nikmalarni belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu jihatdan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-modda 4 qismida bu borada quyidagilar belgilanganligini eslatib o‘tish lozim: “*Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakat hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi*”.⁸ Mazkur tarbiya asoslari davlatchiligidan va taraqqiyotimiz tarixida ilk bor konstitutsiyaviy darajada belgilab qo‘yilganligini eslatib o‘tish joiz. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’limning asosiy o‘quv fanlaridan biri bo‘lgan “Husnixat” o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyaviy fazilatlari va ko‘nikmalarini shakllantirishda ana shu

⁸ Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон”. 2023. 29-бет

qonuniy asosga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda bevosita mazkur fazilatlarga asos bo‘luvchi hislatlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir, chunki hislatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy, jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga mos bo‘lib, ular keyinchalik tarbiyaviy fazilatlar va ko‘nikmalarga aylanadi. Bu borada e’tiboringizni ana shu masalaning tahliliga qaratamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini “Husnixat” o‘quv fani vositasida fazilatli bo‘lishga tayyorlash. Tarbiyaviy fazilatlar bir qator insoniy hislatlarning majmui bo‘lib, ularni tarkib toptirish shaxsni hayot va faoliyatga tayyorlash bilan bog‘liqdir. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini “Husnixat” o‘quv fani vositasida fazilatli bo‘lishga tayyorlash muhim masalalardan biridir. Bunda quyidagilarga e’tibor berish kutilgan samarani beradi:

- a) boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga eng muhim fazilatlarning mazmunini tushuntirish;
- b) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fazilatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirish.

“Husnixat” o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga axloqiy fazilatlar mazmuni tushuntirilib boriladi. Bunda chiroyli yozuv axloqiy fazilatlarning ko‘rinishi ekanligi va chiroyli yozish bilan o‘quvchilar o‘z odobini nomoyon qilishi hamda ifodali o‘qish ham axloqiy sifatlardan biri ekanligi, o‘qish jarayonida o‘zgalarda zavq uyg‘otish o‘zgalarning fikrini tinglash kabilarning ma’nosini tushuntirishga e’tibor qaratiladi. Haqiqatdan ham chiroyli yozuv va ifodali o‘qish o‘quvchining ruhiy kechinmalarini namoyon qilivchi, ularning fazilatlarini ko‘rsatuvchi va estetik didi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi pedagogik, psixologik va estetik hodisadir. Shu sababli mazkur o‘quv fani o‘qituvchilari boshlan‘ich sinf o‘quvchilarining fazilatlar mazmuni bo‘yicha ko‘nikmasini shakllantirishga alohida e’tibor beradi. Chunki agar fazlatlar mazmuni to‘g‘ri tushunilsa, ularni o‘zlashtirish va ularga amal qilish qulay kechadi.

“Husnixat” o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirish vazifasini ham bajaradi. Bunda o‘quvchilarga fazilatli kishilar namuna sifatida ko‘rsatiladi, bunday kishilarning chiroyli yozish va ifodali o‘qish ko‘nikmalaridan ibrat olishga da’vat qilinadi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har xatti-harakatida axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirishga harakat qiladi. Shu sababli yuqori sinf o‘quvchilarining chiroyli yozuvlarini namuna sifatida ko‘rsatish va ularning ifodali o‘qishini jonli ko‘rsatib berish muhim hisoblanadi. Tajribali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bu vositalardan foydalangan holda o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirish ko‘nikmasini tarkib toptiradi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘ziga xos tarbiyalanganlik ko‘rsatkichlari paydo bo‘ladi.

Diqqat qilinsa, “Husnixat” o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy fazilatlarini tushunish va ularni o‘zlashtirishga yo‘naltirilishi muhim amaliy mexanizmlaridan biridir.

“Husnixat” o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intizomli bo‘lishga tayyorlash. Ushbu o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari intizomli bo‘lishga yo‘naltiriladi. Bunda quyidagilarga asoslanilishini ta’kidlab o‘tish lozim:

- a) boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga intizom ko‘nikmasining ahamiyatni tushuntirish;
- b) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intizom qoidalariiga riya qilishga o‘rgatish.

“Husnixat” o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga intizom ko‘nikmasining ahamiyatini tushuntirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tartib, jamoatchilik joyida tinchlik saqlash, sinf va mакtabda intizomli bo‘lish kabilarga ko‘niktiriladi. Bunda chiroyli yozish intizom talab qilinishi tushuntiriladi va qog’oz tanlash, qalam tanlash, o‘tirish qoidalariга rioya qilish kabilar tartibga asoslanishi

ta'kidlab ko'rsatiladi. Agar tartib intizomga rioya qilinmasa chiroyli yozish ko'nikmasi tarkib topmaydi. Shuningdek, ifodali o'qish ham intizomga asoslanadi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari har bir so'zning to'g'ri talaffuzi, urg'ularni o'z o'rniga qo'yish va chiroyli ovoz bilan o'qishga ko'niktiriladi. Buning natijasida o'quvchilarda intizomning ahamiyati to'g'risida tushunchalar paydo bo'ladi.

"Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilari sinfda, mактабда va mактабдан tashqari faoliyat jarayonida intizom qoidalariga rioya qilishga o'rgatiladi. Misol uchun, sinfdan tashqari vaqtarda dars tayyorlash jarayonida intizom qoidalariga rioya qilishga o'rganish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhim ahmiyatga egadir. Bu jarayonda agar intizom qoidalariga rioya qilinmasa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining chiroyli yozish va ifodali o'qish ko'nikmalari rivojlanmay qoladi. Shu jihatdan mazkur o'quv fani o'quvchilarni intizomga o'rgatishning muhim asoslaridan biridir. Yuqori sinf o'quvchilarining ko'pchiligidagi chiroyli yozish va ifodali o'qish ko'nikmasi salbiy tomonga o'zgaradi. Bunga sabab o'quvchilarining nazorat qilinmasligidir. Shu jihatdan ushbu o'quv fani boshlang'ich sinf o'quvchilarida intizom ko'nikmasini rivojlantiruvchi mexanizimga egadir.

E'tibor berilsa, "Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida intizom mazmunini tushunish, uning faoliyatdagi ahmiyatini anglash va intizom qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini tarkib toptirish boyicha muhim mexanizmlarga egadir.

"Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini murakkab vaziyatlarga tayyorlash. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyat davrida ko'p hollarda murakkab vaziyatlarga duch keladi. Shu sababli bu borada quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) boshlang'ich sinf o'quvchilariga murakkab vaziyatlar to'g'risida tushuncha berish;

b) boshlang'ich sinf o'quvchilarini murakkab vaziyatlardan chiqib ketishga o'rgatish;

"Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilariga murakkab vaziyatlar to'g'risida tushuncha berish muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, murakkab vaziyatlar faoliyat davomida tabiiy paydo bo'lishi va ulardan cho'chimaslik tushuntiriladi. Bunda chiroyli yozishni va ifodali o'qishni ko'p mashq qilish vositasida erishiladi. Chunki mashq o'quvchilarni murakkab vaziyatlarni to'g'ri tushunishga yo'naltiradi. Murakkab vaziyatlarni to'g'ri qabul qilish ulardan cho'chimaslik ko'nikmasini tarkib toptiradi. Natijada o'quvchilarda harakatchanlik, o'ktamlik va ko'tarinki ruhlik tarkib topadi. Bu mazkur o'quv fani tarbiyaviy asoslarining eng muhim jihatlaridan biridir.

"Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida murakkab vaziyatlardan chiqib ketish o'rgatiladi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining chiroyli yozish ko'nikmasi turli yozuvlarni mashq qilish vositasida rivojlantiriladi hamda notanish matnlarni o'qitish bilan ularning ifodali o'qish ko'nikmasi rivojlantirib boriladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida murakkab vaziyatlardan chiqib ketish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Chunki chiroyli yozish va ifodali o'qishning o'zi turli murakkab vaziyatlarni tarkib toptirishini hisobga olish lozim. Agar boshlang'ich sinf o'quvchisi sinfda chiroyli yozish va ifodali o'qish asosida murakkab vaziyatlarga ko'niksa, ular sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatida ham duch keladigan murakkab vaziyatlardan cho'chimaydi. Shu jihatdan ushbu o'quv fanining ana shunday amaliy mexanizmlaridan tajribali o'qituvchilar unumli foydalanadi. Bunday yondashuvni oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, "Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini murakkab vaziyatlar mazmuni bilan tanishtirish va

bunday vaziyatlardan chiqib ketishga ko'niktirish muhim amaliy mexanizmlardan biridir. Shu sababli mazkur o'quv fani boshlang'ich ta'lif jarayonida tarbiyaviy masalalarini hal etishdagi yondashuvlarga egaligi bilan diqqatni tortadi.

Shunday qilib "Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni o'zlashtirish, ularni intizomga o'rgatish va o'quvchilarini murakkab vaziyatlardan chiqib ketishga ko'niktirish muhim o'rinni tutadi. Bunday yondashuv asosida oliy pedagogik ta'lif jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik ko'nikmalarini tarkib toptirish dolzarb bo'lib turibdi. Buning uchun mazkur o'quv fanini innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish va u bo'yicha amaliy metodikani tarkib toptirishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, ushbu o'quv fanini o'zlashtirgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'lif jarayonida o'qitish va tarbiyalash ishlarini uyg'un olib borish metodikasiga ega bo'ladi. Shu sababli mazkur o'quv fani asoslarini amaliy jihatdan o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Savollar va topshiriq:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini "Husnixat" o'quv fani vositasida fazilatli bo'lishga tayyorlash nimalarga asoslanadi?
2. "Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini intizomli bo'lishga tayyorlash nimalarga tayanadi?
3. "Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini murakkab vaziyatlarga tayyorlashning omillari nimalardan iborat?

4-modul. “Husnixat” o‘quv fanini o‘qitish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari

Reja:

1. “Husnixat” o‘quv fanini o‘qitishga doir Yevropa mamlakatlari tajribasi
2. “Husnixat” o‘quv fanini o‘qitish bo‘yicha ingliz tilli mamlakatlar tajribasi
3. “Husnixat” o‘quv fanini o‘qitish bo‘yicha Osiyo mamlakatlari tajribasi

Tayanch tushunchalar:

Husnixat, xorijiy mamlakatlar tajribasi, yondashuvlar, o‘ziga xosliklar, individual xususiyatlar, o‘zlashtirish, bilim, ko‘nikma.

“Husnixat” o‘quv fani bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning tajribalari mavjud bo‘lib, ularda har bir mamlakatning milliy qadriyatları, yozuv va o‘qish madaniyati o‘z ifodasini topgan. Bu xorijiy mamlakatlarning tajribalari XI asrdan boshlab rivojlanib kelayotganligi eslatib o‘tish joiz. Bu o‘rinda ana shu masalaning eng muhim jihatlari tahliliga e’tiboringizni tortamiz.⁹

“Husnixat” o‘quv fanini o‘qitishga doir Yevropa mamlakatlari tajribasi. Mazkur o‘quv fanini o‘qitish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda o‘ziga xos tajribalar tarkib topgan. Shu jihatdan Yevropa mamlakatlarining ushbu o‘quv fanini o‘qitish tajribasining eng asosiy jihatlarini idrok etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu ma’noda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- a) Germaniya tajribasi;
- b) Fransiya tajribasi;
- v) Finlandiya tajribasi;

⁹ Ўқув-услубий қўлланманинг мазкур бўлимини ёритишда қўйидаги манбага таянилди: Бордовская Н., Реан А. Педагогика. – Санкт-Петербург, 2001. Ушбу манба ЮНЕСКО томонидан дарслик томонидан дарслик сифатида тавсия этилганлигини эслатиб ўтиш жоиз.

g) Shvedsariya tajribasi.

“Husnixat” o‘quv fanini o‘qitishning Germaniya Federativ Respublikasi tajribasida roman tilli yozuvlar xususiyatiga asoslaniladi. Unga ko‘ra, roman tilli yozuvlarda tovushlarning uyg‘unlashuvi, ya’ni singarmanizm hodisasi keng mavjud bo‘lib, bu hol so‘zlarning qanday talaffuz qilinishiga qarab yozilishini taqozo etadi. Misol uchun, olmon (german) tilida “g” undosh tovushi “h” deb talaffuz qilinadi. Natijada ko‘p hollarda g tovushi ishtiroki etgan so‘zlar va iboralar o‘qishda h talaffuz qilinadi. Bu murakkab hodisa tufayli Germaniyada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 3-4 yil davomida yozuv va o‘qish malakasini egallaydi. Shu sababli mazkur mamlakat boshlang‘ich sinflarida o‘quvchilarning miqdori 12 nafardan oshmaydi. Bundan tashqari, davlat tomonidan nodavlat boshlang‘ich sinf ta’lim muassasalari rag‘batlantiriladi. Buning natijasida davlat va nodavlat boshlang‘ich ta’lim sinflari o‘rtasida sog‘lom raqobat muntazam davom etadi. Roman tillariga xos bo‘lgan xususiyatlardan yana biri yozuvning yagonaligidir. Unga ko‘ra, mazkur tillarda yozish va o‘qish lotin alifbosidagi milliy alifboga tayanadi. Buning natijasida Germaniya, Avstriya kabi mamlakatlarda yagona yozuv amal qilmoqda. Natijada yozuvning yagonaligi va o‘qish qoidalarining tipiklashganligi roman tilli xorijiy mamlakatlarda o‘zaro tushunuvchanlik va ta’limni o‘zlashtirish jarayonida yagonalikni keltirib chiqargan. Shu jihatdan Germaniya tajribasidan yagona yozuv va boshlang‘ich ta’limning sog‘lom raqobati tajribasini o‘zlashtirish mumkin bo‘ladi.

“Husnixat” o‘quv fanini o‘qitish bo‘yicha Fransiya tajribasida so‘zlarni nazokatli va ohangli talaffuz qilish qoidalariga asoslaniladi. Fransuz tili yozushi ixchamligi va qulayligi, unli va undosh tovushlarning to‘liq ifodalanishi, so‘zlar qanday talaffuz qilinsa shunday yozilishi xususiyatilari bilan ajralib turadi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yozish va o‘qish ko‘nikmasini teng o‘zlashtiradi. Bunda ayniqsa, o‘quvchilarning so‘z boyligini

kengaytirish va ularni shevalarga asosan lug'atini chuqurlashtirib borish, yozuv malakasini mustaqil matnlar tuzish bilan uyg'un olib borish tajribasiga asoslaniladi. Boshlang'ich sinflarda salbiy ma'noli va qo'pol talaffuzli so'zlar o'qitilmaydi. Bunda "nazokatli so'zlash-madaniyat belgisi" tamoyiliga tayaniladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun yozuv madaniyati va o'qish malakasini rivojlantiruvchi juda ko'p o'quv adabiyotlari mavjud bo'lib, har bir o'quv yilda yangicha yondashuvlarga asoslangan o'quv materiallari taqdim qilib boriladi. Shu sababli boshlang'ich ta'limni yakunlagan o'quvchilar o'ziga xos nutqqa va tushunib o'qish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Fransiyaning mazkur o'quv fani tajribasidan bugungi kunda Afrika qit'asining Jazoir, Yaman kabi mamlakatlarida keng foydalanilayotganligi eslatib o'tish lozim. Shu ma'noda ushbu o'quv fanining Fransiya tajribasidan nazokatli so'zlash va matnni tushunib o'qish tajribasini o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Finlandiya Respublikasining alifbosi tarkibi Rossiya Federatsiyasi alifbosining qoidalariga asoslangan va shu sababli roman tilida so'zlashuvchi bu mamlakatning yozuv madaniyati Krill alifbosi qoidalariga asoslanadi. Finlandyaning "Husnixat" o'quv fanini o'qitish tajribasida shu narsa ma'lum bo'ladiki, 1-2 sinflarda o'quvchilarning asosan chiroyli yozish va matn tuzish ko'nikmalari tarkib toptiriladi, 3-4 sinflarda o'quvchilarni notanish matnlar asosida o'qish va fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Ayni paytda, mazkur mamlakatning ushbu o'quv fani bo'yicha tajribasida asosiy e'tibor o'quvchilarning mustaqil matn tuzish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratiladi. Buning uchun o'qituvchi tomonidan turli ko'rgazmali qurollar va jihozlar taqdim qilinib, ular bo'yicha mustaqil matn tuzish topshirig'i topshiriladi. Qiziqarli va mazmunli matnlar o'quvchilar tomonidan ommaviy o'zlashtirish uchun tavsiya qilinadi. Mazkur mamlakat tajribasida yozishlar nisbatan qisqartma so'zlardan foydalanish an'anasi ham mavjud. Shu sababli so'zlarning qisqartma yozish qoidalari

mastahkamlab qo'yilgan va bu Rossiya Federatsiyasining tajribasidan o'zlashtirganligini eslatib o'tish lozim. Masalan, bo'g'in ko'chirishda so'zning har ikki qismi ham ma'no anglatishi kerak. Shu ma'noda ushbu o'quv fanini o'qitish bo'yicha Finlandiya tajribasidan so'zlarni qisqartirib yozish, bo'g'in ko'chirish va o'quvchilarining mustaqil matn tuzish ko'nikmalarini o'zlashtirish kutilgan samarani beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda Finlandiyaning o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish tajribasiga qiziqish bilan qaralayotganligini ham ta'kidlab o'tish lozim.

"Husnixat" o'quv fanini o'qitish bo'yicha Shvesariyada o'ziga xos tajriba mavjud. Shvesariyada bu tajribaga ko'ra, boshlang'ich ta'lim bevosita mustaqil ta'limga asoslangan nodavlat shaklda amalgamoshiriladi. Unga ko'ra, tajribali o'qituvchilar o'zlarining imkoniyatlari doirasida o'quvchilarining yozish va o'qish ko'nikmasini shakllantirish vazifasini o'z zimmasiga oladi va bunda o'quvchilarining miqdori 10 nafardan oshmasligi kerak. Ayni paytda, mazkur mamlakatning yozushi va so'zlarning talaffuzi barqarorlashgan, ya'ni so'zlar qanday talaffuz qilinsa, yozuvda shunday aks etadi. Bunday grammatik yengillik boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozish va o'qish ko'nikmasini samarali tarkib toptirish imkonini bermoqda. Ayni paytda, Shvesariyada o'zlashma so'zlarga nisbatan qat'iy munosabatda bo'linadi va bu bilan Shvesiya tilining sofligini saqlash mavaffaqiyatiga erishib kelinmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozish va o'qish ko'nikmasini tarkib toptirishdagi Shvesiya tajribasidan Shvesariya, Daniya, Norvegiya kabi mamlakatlarda foydalanib kelinayotiganligini eslatib o'tish lozim. Shu jihatdan mazkur mamlakatning ushbu o'quv fanini o'qitish tajribasidan milliy tilning so'z boyliklaridan foydalanish va o'quvchilarining mustaqil fikrlash vositasida o'qish ko'nikmasini shakllantirish masalalarini o'zlashtirish mumkin bo'ladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z ona tilisida yozish va o'qish

ko'nikmasini o'zlashtirsa, ularning bilim va tarbiyaviy ko'nikmalari tez tarkib topishi ma'lum.

E'tibor berilsa, Yevropa mamlakatlarida ushbu o'quv fanini o'qitishning individual tajribasi mavjud. Bu tajribalarning eng muhim jihatlarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'rghanish va o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Husnixat" o'quv fanini o'qitish bo'yicha ingliz tilli mamlakatlar tajribasi. Ingliz tilli mamlakatlar, ya'ni Buyuk Britaniya, Amerika va Kanadada ushbu o'quv fanining o'qitish asoslari bevosita ingliz tili alifbosining qoidalariga asoslanadi. Ayni paytda, Amerika va Kanada ingliz tilisining qoidalarida Angliya ingliz tili qoidalaridan farq qiluvchi tartiblar ham mavjud. Bu ikki mamlakatning so'z boyligida yerli xalq hindularning, Yevropadan ko'chib borgan Portugal va Ispanlarning so'z boyliklari ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Shu ma'noda ushbu o'quv fanini o'qitishning quyidagi tajribalariga e'tibor berish lozim:

- a) Buyuk Britaniya tajribasi;
- b) Amerika va Kanada tajribasi;
- v) o'zaro uyg'unlik tajribasi;
- g) individuallik tajribasi.

Buyuk Britaniyaning "Husnixat" o'quv fanini o'qitish tajribasi asosan ingliz tilining murakkab grammatik qoidalariga asoslanadi. Ingliz tilida so'zlarning yozilishi va ularni o'qish tartibi farqlanadi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning yozish va o'qish ko'nikmasini tarkib toptirishda asosan tilning xususiyatlariga tayaniladi. Shuni ta'kidlash lozimki, 1-2 sinflarda o'quvchilar so'z talaffuzini o'zlashtirishadi, 3-4 sinflarda to'g'ri yozish qoidalarini o'zlashtiradi. Shu jihatdan so'z talaffuzi chiroyli va ifodali o'qishning asosi sifatida qabul qilingan. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyaning ingliz tilisi yangi va o'zlashtirma so'zlarni keng qabul qilib borayotgan til sifatida e'tirof etilgan. Shu sababli har o'quv yilida yozish va o'qish madaniyati bo'yicha Ta'lim gubernatorligining

maxsus tavsiyalari taqdim etib boriladi. Buning natijasida ingliz tilining dunyo miqyosida keng tarqalishiga erishilmoqda. Shu ma'noda ushbu o'quv fanining mazkur mamlakat tajribasidan so'zlar talaffuzi ko'nikmasini va tajribasini o'zlashtirish mumkin bo'ladi.

Amerika va Kanada mamlakatlarida asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish vositasida fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirishga qaratiladi. Bu mamlakatlarda boshlang'ich ta'limning yakuni sinfida chiroyli yozish ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor berilishini eslatib o'tish lozim. Shu jihatdan mazkur mamlakatlarning tajribasida avval o'qish ko'nikmasi, keyin fikrlash va nihoyat yozish ko'nikmasini shakllantirish tizimiga amal qilinadi. Bunga sabab ushbu mamlakatlarning ingliz tili so'z boyligi va grammatikasida boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning keng mavjudligidir. Shu ma'noda Amerika va Kanada mamlakatlarining "Husnixat" o'quv fanini o'qitish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirish metodikasini o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu metodika asosida o'quvchilar mustaqil fikrlashning asoslari bo'lgan yozish, o'qish va topshiriqlarni individual bajarish ko'nikmalarini ega bo'lib boradi. Ayni paytda, ushbu mamlakatlarda muqimlashgan darsliklar mavjud emas. Har bir ta'lim muassasasining individual darsliklari amalga kiritilgan va ko'proq nodavlat boshlang'ich sinflari imkoniyatlaridan foydalilaniladi. Ushbu o'quv fanini o'qitishning o'quvchilarini o'qish vositasida mustaqil fikrga o'rgatish tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ingliz tilli mamlakatlarning "Husnixat" o'quv fani bo'yicha o'zaro uyg'unlik tajribalari ham mavjud. Unga ko'ra, ingliz tili va adabiyoti boshlang'ich ta'limdayoq keng o'qitiladi hamda bu mamlakatlar adiblarining barchasi ingliz tilida ijod qilishini eslatib o'tish joiz. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim metodikasida ham yagonalik ko'zga tashlanadi. Bunda asosiy e'tibor o'qish savodxonligi hamda mustaqil fikr ko'nikmasini tarkib toptirishda yagona yondashuv mavjud. Ayni

paytda, mazkur mamlakatlarda yozuv malakasining susayganligini eslatib o'tish joiz. Bunga sabab boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga kompyuterli texnologiyalarning keng tadbiq etilganligidir. Shu sababli pedagoglar keyingi besh yil davomida "Husnixat" o'quv fani vositasida an'anaviy yozuv ko'nikmasini qayta tiklash taklifini ilgari surmoqda. Bunda yozuvning inson ichki olami va miya faoliyatining ijobiy ta'sir ko'rsatishi tajribasini hisobga olinmoqda. Shu jihatdan YUNESKOning tavsiyasiga binoan yozuv madaniyatining shaxs kamolotida tutgan o'rni to'g'risidagi tavsiyalari amalga kiritilmoqda. Demak, ingliz tilli mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, texnik vositalarga asoslangan boshlang'ich ta'lim jarayoni muayyan kamchiliklarga ega bo'ladi. Shu ma'noda "Husnixat" o'quv fanining imkoniyatlaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozish va o'qish ko'nikmasini tarkib toptirishni YUNESKO tashkiloti rag'batlantiradi.

Ingliz tilli mamlakatlarning ushbu o'quv fani bo'yicha eng muhim tajribalaridan biri har bir o'qituvchining individual metodikaga egaligidir. Unga ko'ra, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z fani bo'yicha individual metodikaga ega bo'lishi shart hisoblanadi. Jumladan, "Husnixat" o'quv fani o'qituvchisi uchun ingliz tilining tarixiy yozuv shakllarini bilishi, so'zlarni tahlil eta olishi, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini ingliz tili grammatikasi asosida tarkib toptirishi hamda eng mashhur asarlarning mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtira olishi talablari qo'yilgan. Shu sababli mazkur o'quv fani o'qituvchilari imkon qadar innovatsion va texnologik metodikalarga tayanishni xush ko'rishadi. Shu ma'noda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari lotin alifbosidagi o'zbek yozuvining xususiyatlari, milliy asarlar mazmuni, ushbu fanni o'qitishda innovatsion va texnologik metodikalardan keng foydalanish bo'yicha ingliz tilli mamlakatlarning boshlang'ich sinf o'qituvchilari tajribasini o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun mamlakatimizda texnik-tashkiliy imkoniyatlarning

mavjud ekanligini eslatib o'tish joiz. Masalan, umumiylor ta'lim maktablari talab darajasida kompyuterlashtirilganligi bunday imkoniyatlarning negizini tashkil qiladi.

E'tibor berilsa, ingliz tilli mamlakatlarning "Husnixat" o'quv fani bo'yicha ta'lim jarayoni va o'qituvchilarining individual metodikaga ega bo'lishi o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

"Husnixat" o'quv fanini o'qitish bo'yicha Osiyo mamlakatlari tajribasi. Osiyo mamlakatlari mazkur o'quv fanini o'qitish bo'yicha mintaqaga xos bo'lgan tajribalarga ega. Bu tajribalarning eng asosiy xususiyatini mamlakatlar milliy qadriyatlarining ustuvor qo'yilishi tashkil qiladi. Shu jihatdan quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) Rossiya tajribasi;
- b) Xitoy tajribasi;
- v) Indoneziya tajribasi;
- g) Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasi.

"Husnixat" o'quv fanini o'qitishning Osiyo tajribasida Rossiya mamlakatinining tajribasi ustuvor darajada ta'sir ko'rsatganligini ta'kidlab o'tish lozim. Unga ko'ra, XVIII asrdan boshlab Rossiyada chiroyli yozish, ifodali o'qish va mustaqil matn tuzish hamda uni tahlil qila olish ko'nikmalarini shakllantirish birlamchi hisoblanadi. Bu masala boshlang'ich ta'limning eng asosiy vazifalaridan biri sifatida qabul qilingan. Shu sababli Rossiyalik pedagog olimlar tomonidan chiroyli yozuv asoslari, ifodali o'qish metodikasi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini rivojlantirish asoslari va ularning mustaqil matn tuzish ko'nikmalarini tarkib toptirish metodikalari ishlab chiqilgan. Bunda asosiy e'tibor har bir boshlang'ich sinf o'quvchisi bilan individual ishlashga qaratiladi. Shu sababli Rossiya ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini eng yuqori rag'batlantiruvchi pedagoglar sifatida qabul qilingan. Bunday tajribalar bizning mamlakatimizda ham tarkib topganligini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini Rossiya

mamlakatinining “Husnixat” o‘quv fanini o‘qitishda eng samarali metodikalarga asoslanish tajribasini o‘zlashtirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Osiyo mamlakatlaridan Xitoy tajribasida “Hunixat” o‘quv fanini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchilarning chiroyli yozuv ko‘nikmasini tarkib toptirishga qaratiladi. Bunda Xitoy tiliga xos bo‘lgan bezakli va shakldorlik asosiy o‘rin tutadi. Chunki Xitoy tilida har bir so‘z (iyeroglyph) ma’noga ega. Shu sababli xattotlik san’atining tarkibiy qismi bo‘lgan chiroyli yozuv ko‘nikmasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini hayot va faoliyatga tayyorlash asosi sifatida qabul qilingan. Har bir so‘zni chiroyli yozish va uning ma’nosini anglash o‘qish savodxonligini keltirib chiqaradi. Ayni paytda, mazkur o‘quv fanini o‘qitishning Xitoy tajribasi juda qadimiy tarixga egaligi bilan jahon pedagoglarini o‘ziga jalb etmoqda. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ushbu fan bo‘yicha Xitoy tajribasini o‘rganishi chiroyli yozuv ustida ishlash, mamlakatimiz qoya toshlaridagi iroyeglf yozuvlarni tahlil qilish va o‘rganish kabi yo‘nalishlarga muhim metodik asoslardan biri bo‘lib hizmat qiladi. Bu borada rus tilida nashr etilgan o‘ziga xos metodik adabiyotlar mavjudligini eslatib o‘tish joiz.

“Husnixat” o‘quv fanini o‘qitishning Indoneziya tajribasida arab yozuvi qoidalariga asoslaniladi. Unga ko‘ra, arab alifbosidagi 4 xil yozuv shakli boshlang‘ich sinflardayoq o‘rgatiladi va arab tiliga xos bo‘lgan so‘zlarning yozilish xususiyatlari bo‘yicha ko‘nikmalar tarkib toptiriladi. Shu sababli butun boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarining yozuv ko‘nikmasini shakllantirish ishi amalgalash oshiriladi. Bunda yozuv vositasida o‘qish ko‘nikmasini egallash tarkib topadi. Ayni paytda, arab tilida unli tovushlarning ifodalanmasligi bu yozuv bo‘yicha ko‘nikmalarni egallash muddatini uzaytirishga olib kelgan. Shuningdek, har bir harfning 3 shaklda yozish xususiyatlari mavjud. Mazkur masalada Indoneziyada yozuv asosida o‘qish ko‘nikmasini tarkib toptirish metodikasiga amal qilinadi. Bundan

tashqari, keyingi 10 yil ichida mazkur mamlakatda ingliz tilini o'rganish va uni boshlang'ich ta'limdan boshlash masalasiga asosiy e'tibor berilmoqda. Shu jihatdan bu borada mazkur mamlakat Buyuk Britaniya "Husnixat" o'quv fanini o'qitish tajribasini qabul qilayotganligini eslatib o'tish lozim. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari Indoneziya tajribasidan o'quvchilar bilan ularning istalgan vaqtida ishlash tajribasini o'rganishi kutilgan samarani beradi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikistonda "Husnixat" o'quv fanini o'qitish tajribasi Rossiya metodikasi asosida tarkib topganligini eslatib o'tish joiz. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroyli yozishga o'rgatish, to'g'ri bo'g'in ko'chirishga ko'niktirish, so'zlarni to'g'ri yozish, matnni ifodali o'qish, matndagi xatolarni to'g'rakash va mustaqil matn tuza olish ko'nikmalarini tarkib toptirish ustuvor hisoblanadi. Ayni paytda mazkur mamlakatlarning ushbu o'quv fanini o'qitish metodikasida takomillashtirish jarayoni kechayotganligini eslatib o'tish joiz. Jumladan, mazkur o'quv fanini o'qitishda kompyuterli texnologiyalardan foydalanish ommaviylashib bormoqda. Biroq, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarida chiroyli yozish va ifodali o'qish ko'nikmasini shakllantirish ishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Chunki kompyuter dasturlarida masalan, bo'g'inni noto'g'ri ko'chirish dasturlari mavjud. Bunday texnik noqulayliklarni bartaraf etish zaruriyat bo'lib turibdi. Misol uchun, lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvidagi "o" harfini kompyuterda yozish uchun 3 harakatni amalga oshirish kerak. Shu ma'noda bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun mamlakatimizda alifboni takomillashtirish masalasi dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz. Bunday kamchiliklar Markaziy Osiyo davlatlarida ham uchraydi. Masalan, Qozog'iston alifbosida "yu" harfini yozishda nihoyatda murakkablikka duch kelayotganligini pedagog olimlar tomonidan alohida ta'kidlab

kelinmoqda. Demak, Markaziy Osiyo davlatlarida ushbu fanni o'qitish bo'yicha chiroyli yozish va ifodali o'qish tajribasini metodik jihatdan o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib "Husnixat" o'quv fanini o'qitishning xorijiy mamlakatlar tajribasi bir necha xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi. Bunday xususiyatlarning eng yaxshilarini qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayni paytda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu fanni o'qitish bo'yicha xorijiy tajribalardan ma'lumotga ega bo'lishi ularning kasbiy kompetensiyasini kengaytirishini eslatib o'tish joiz.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. "Husnixat" o'quv fanini o'qitishga doir Yevropa mamlakatlari tajribasi deganda nimalarni tushunasiz?
2. "Husnixat" o'quv fanini o'qitish bo'yicha ingliz tilli mamlakatlar tajribasi nimalardan iborat?
3. "Husnixat" o'quv fanini o'qitish bo'yicha Osiyo mamlakatlari tajribasi asoslarini nimalar tashkil qiladi?
4. O'zingiz qiziqqan xorijiy mamlakatning "Husnixat" o'quv fanini o'qitish metodikasi bo'yicha taqdimot tayyorlang va uni talabalar muhokamasiga taqdim eting.

5-modul. “Husnixat” o‘quv fani amaliyoti

Reja:

- 1.**“Husnixat” o‘quv fanining boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi
- 2.**“Husnixat” o‘quv fanining o‘quvchilar faoliyatidagi amaliyoti.
- 3.**“Husnixat” o‘quv fanining istiqbolli amaliyoti

Tayanch tushunchalar:

Husnixat, o‘zaro bog‘liqlik, o‘quv fanlari, amaliyot, faoliyat, istiqbol, bilim, ko‘nikma, malaka.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan boshlang‘ich ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish ishida o‘quv fanlarining imkoniyatlaridan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Buning uchun muayyan o‘quv fanlarining nazariy va amaliy ahamiyatini aniq belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu jihatdan “Husnixat” o‘quv fani boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari ichida asosiy va yo‘naltiruvchi fanlardan biri bo‘lib, u o‘quvchilarining nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini tarkib toptirishda muhim o‘rin tutadi. Bu o‘rinda ana shu masalaning tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

“Husnixat” o‘quv fanining boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi. Ushbu o‘quv fani boshlang‘ich ta’limda o‘qitilayotgan o‘quv fanlari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu jihatdan bu masalada quyidagilarga e’tibor berish lozim bo‘ladi:

- a) o‘quv fanining aniq fanlar bilan bog‘liqligi;
- b) o‘quv fanining tabiiy fanlar bilan bog‘liqligi;
- v) o‘quv fanining gumanitar fanlar bilan bog‘liqligi.

“Husnixat” o‘quv fani amaliyotida uning aniq fanlar bilan bog‘liqligi muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga Matematika hamda Informatika va axborot texnologiyalari o‘quv fanlari o‘qitilmoqda. Bu o‘quv fanlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hisob savodxonligini hamda

axborot bilan ishslash ko'nikmasini tarkib toptirishda muhim o'rinni tutadi. Shu jihatdan "Husnixat" o'quv fani Matematika fanini o'qitish jarayonida chiroyli va tushunarli yozish, sanoqli hamda matematik amallarni bajarishda o'ziga xos ko'nikmalarga ega bo'lishda muhim o'rinni tutadi. Chunki matematik olimlarning fikricha, chiroyli yozuv matematik tafakkurning asosiy elementlaridan biridir va bunda matematik amallarni to'g'ri ifodalash jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'ziga xos individual ko'nikma hosil bo'ladi. Shu sababli Respublika va xalqaro miqyosda o'tkaziladigan Matematika fani olimpiadalarida ishtirokchilarning yozuv malakasi yuqori baholashning mezonlaridan biri sifatida qabul qilingan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari Informatika va axborot texnologiyalari asoslarini o'zlashtirish, ma'lumotlar bilan ishslash va ulardan foydalanish jarayonida sifatli o'qish ko'nikmalariga tayanadi. Agar o'quvchi sifatli va mazmunli o'qish qoidalariga rioya qilsa, uning ma'lumotlar bilan ishslash ko'nikmasi rivojlanib boradi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, 3-4 sinflarda mazkur o'quv fanining aniq fanlar bilan bog'liqligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

"Husnixat" o'quv fani amaliyotida tabiiy fanlar bilan bog'liqlik ham muhim o'rinni tutadi. Bunda tabiat hodisalari, o'simlik va hayvonot olami to'g'risida tushunchalarni o'zlashtirishda yozuv va o'qish ko'nikmalariga tayanilishi ma'lum. Chunki tabiiy o'quv fanlarini o'zlashtirish jarayonida turli tushunchalar, murakkab atamalar va o'zga tillardan o'zlashgan tushunchalarni to'g'ri yozish va aniq o'qish bilan o'zlashtirish yuzaga keladi. Misol uchun, 3-sinfda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'simlik dunyosi bilan keng tanishtiriladi. Bunda har bir o'simlikning lotin tilidagi atamasi ham o'rgatiladi. Bu hol chiroyli va to'g'ri yozish, atamalar mazmunini to'g'ri o'qish va tushunish jarayoni bilan bog'liqlikda kechadi. Shuni eslatib o'tish joizki, tabiiy fanlar asoslarini o'zlashtirish jarayonida chiroyli yozuv va ifodali o'qish ko'nikmasiga ega o'quvchilarda estetik ko'nikma paydo bo'ladi. Aynan mana shu hol ushbu o'quv fanining tabiiy fanlar bilan

bog'liqligi negizini tashkil qiladi. Ayni paytda, tabiiy fanlar asosida o'zlashtiriladigan tushuncha va atamalarning lotin yozuvidagi o'zbek alifbosida ifodalash ko'nikmasini egallah boshlang'ich sinf o'quvchilarining keyingi o'quv faoliyatida amaliy mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

"Husnixat" o'quv fani amaliyotida uning bevosita gumanitar fanlar bilan integratsiyasi muhim o'rinni tutadi. Bunda "Ona tili va o'qish savodxonligi", "Konstitutsiya alifbosi", "Texnologiya" kabi o'quv fanlari bilan ushbu o'quv fanining bevosita bog'liqligi ma'lum. Boshlang'ich sinf o'quvchilari aniq fanlarni o'zlashtirish jarayonida insho va bayon, notanish matnlarni o'qish va tushunish asoslaridan keng foydalanadi. Shu sababli ushbu o'quv fani asosida hosil qilingan amaliy ko'nikmalar gumanitar fanlar asoslarini o'zlashtirish va ulardan foydalanish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Chunki nisbatan ko'p yozish va notanish matnlarni o'qish boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasini chuqurlashtiradi hamda ularning faoliyat ko'nikmalarini kengaytiradi. Shu sababli tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu o'quv fanini bevosita gumanitar fanlar bilan bog'liqlikda o'qitish jarayoniga asosiy e'tiborni qaratadi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilari boshlang'ich ta'lim yakuniga qadar chiroyli yozish va ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bularning barchasi mazkur o'quv fanining amaliy ahamiyatini belgilab ko'rsatadi.

E'tibor berilsa, "Husnixat" o'quv fani aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalari rivojlantirib boriladi. Xorijlik olimlarning ta'kidlashicha, bilim asosini o'zlashtirishda aynan chiroyli yozish va ifodali o'qish ko'nikmasi tayanch vazifani bajaradi.

"Husnixat" o'quv fanining o'quvchilar faoliyatidagi amaliyoti. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida "**Husnixat**" o'quv fanining amaliyoti muhim o'rinni tutadi. Chunki bu fan

vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilari quyidagi ko'nikmalarni o'zlashtiradi:

- a) chiroyli yozuv va ifodali o'qish vositasida dastlabki bosqichda bilimlarni o'zlashtirish;
- b) chiroyli yozuv va ifodali o'qish vositasida estetik ko'nikmaga ega bo'lish;
- v) chiroyli yozuv va ifodali o'qish vositasida amaliy faoliyatga tayyorlanish.

"Husnixat" o'quv fani boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroyli yozish va ifodali o'qish vositasida ilk bor bilim olamiga olib kiradi. Bu muhim amaliy masaladir. Chunki aynan yozuv va o'qish bilimlar majmuini o'zlashtirishning tayanchi sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilimga qiziqish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Misol uchun, ba'zi o'quvchilar chiroyli yozish vositasida o'quv fanlari mavzularini o'zlashtirsa, ayrimlari o'quv fanlari materiallarini o'qish vositasida o'zlashtiradi. Buning natijasida ularda bilim olishga bo'lgan qiziqish va layoqat paydo bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, boshqa boshlang'ich ta'lif o'quv fanlaridan farqli o'laroq mazkur o'quv fani qiziqarliligi, o'quvchilarini mustaqil xatti-harakatga yo'naltirishi va o'quvchilarda o'zaro yordamlashish ko'nikmasini tarkib toptirishi bilan ajralib turadi. Mazkur xususiyatlarni hisobga olgan misol uchun, Rossiyalik pedagog olimlar "Kalligrafiya", ya'ni "Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimdonlik ko'nikmasini tarkib toptirishga alohida e'tibor beradi. Bunda ularning hisob ko'nikmasini tarkib toptirishda Matematika o'quv fani mashg'ulotlarida "Husnixat" o'quv fani metodikasidan foydalangan holda mashqlarni amalgalashiradi. Shu sababli bu o'quv fani ko'pchilik dunyo mamlakatlarida jumladan, mamlakatimizda boshlang'ich ta'lifning eng muhim bilim asoslarini beruvchi predmet sifatida e'tirof etib kelinmoqda.

"Husnixat" o'quv fani amaliyotida boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik ko'nikmasini tarkib toptirish ham muhim

o'rin tutadi. Keyingi paytlarda, aqliy, jismoniy va ruhiy ko'nikmalardan farqli o'laroq boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik ko'nikmasini tarkib toptirish masalasi sust kechayotganligini eslatib o'tish joiz. Vaholangki. Chiroyli yozuv va ifodali o'qish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida go'zallikdan zavqlanish, didli-farosatli bo'lish, o'ktam va harakatli ko'nikmalarni egallah, har bir xatti-harakatda ma'noli faoliyat ko'rsatish kabi estetik ko'nikmalarni tarkib toptirish imkoniyatlari kengdir. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilarida zavqlanish ko'nikmasini tarkib toptirish bilan ular nafaqat ruhiy, balki jismoniy jihatdan rivojlantirilishini eslatib o'tish joiz. Jadid pedagoglari rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) "Katta jug'rofiya kitobi" darsligida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'zi yashab turgan tabiat, mamlakatlar va fasllarning go'zalligi bilan estetik ko'nikmasini shakllantirish, bunda o'qish metodikasidan amaliy foydalanish masalalarini birinchi bor milliy pedagogikamizda assoslab ko'rsatgan edi. Chunki uning fikricha aynan estetik ko'nikma boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bilim va malakaning tayanchi hisoblanadi.¹⁰ Shu jihatdan mazkur o'quv fanining amaliy imkoniyatlaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik ko'nikmasini tarkib toptirish va bu ko'nikma vositasida ularni madaniyatli insonlar sifatida voyaga yetkazish muhim ahamiyatga egadir.

"Husnixat" o'quv fani amaliyotida boshlang'ich sinf o'quvchilarini faoliyatga tayyorlash ham muhim o'rin tutadi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari chiroyli yozish va ifodali o'qish vositasida ta'limiylar faoliyatga, tarbiyaviy faoliyatga va o'z shaxsini rivojlantirib borish faoliyatiga tayyorlanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mazkur o'quv fanining namunaviy matnlari boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limiylar faoliyatga yo'naltiradi, uning matnlari mazmuni o'quvchilar uchun muhim tarbiyaviy ko'nikmalarni tarkib toptiradi va asta-sekin o'quvchi shaxsining rivojlanib borish jarayoni yuzaga keladi. Bunday

¹⁰ Қаранг: Махмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. – Т.: "Маънавият". 1998

tabiiy imkoniyatlardan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarini faoliyatga tayyorlash boshlang'ich ta'lif tajribasida muhim o'rinni tutib kelmoqda. Shu sababli keyingi paytlarda, bolalarni adifboga o'rgatish bilangina ularni maktabga tayyorlash kutilgan samarani bermasligi ma'lum bo'ldi. "Husnixat" o'quv fani kabi predmetlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini faoliyatga tayyorlash ishini amalga oshirish muhimdir. Bunda mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, "Husnixat" o'quv fani amaliyotida o'quvchilarini faoliyatga tayyorlash muhim o'rinni tutadi. Shu sababli mazkur fan vositasida boshlang'ich ta'lif o'quv fanlarini o'qitish jarayonini tashkil qilish tajribasi amaliyotga bog'langanligi bilan e'tiborni tortadi. Bunda asosiy e'tibor ushbu o'quv fanining o'quvchilar faoliyatida tutgan o'rnini idrok etishga qaratilishi kutilgan samarani beradi.

"Husnixat" o'quv fanining istiqbolli amaliyoti. Boshlang'ich ta'lif o'quv fanlari tarkibida ushbu o'quv fanining muhim istiqbolli ahamiyatga ega ekanligi ajralib turadi. Shu sababli mazkur o'quv fanining istiqbolli amaliyotida quyidagilar muhim o'rinni tutadi:

- a) lotin yozuvidagi o'zbek alifbosini takomillashtirishdagi istiqbolli amaliyoti;
- b) zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish istiqbolli amaliyoti;
- v) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini husnixat san'ati vositasida pedagogik faoliyatga tayyorlash istiqbolli amaliyoti.

Mamlakatimizda lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosini takomillashtirish jarayoni kechayotganligini eslatib o'tish joiz. Bundan maqsad o'zbek alifbosining nisbatan qulay shakllarini ishlab chiqish va undan foydalanish tizimini tarkib toptirishdir. Har bir xalqning milliy yozuvi asrlar davomida takomillashib kelganligini ta'kidlab o'tish lozim. Shu jihatdan qadimgi davrlardan VIII asrgacha

bo'lgan davrdagi Urxun-Enasoy va Uyg'ur alifbosidagi yozuvlarimiz muhim takomilga ega edi, keyinchalik VIII asrdan XX asr 24-yillarigacha bo'lgan arab alifbosidagi milliy yozuvchimiz o'ziga xos xattotlik san'ati jihatidan takomilda bo'lgan edi, 1929-1939 yillarda amalda bo'lgan lotin alifbosidagi milliy yozuvimiz imlo jihatidan takomillashtirilgandi va nihoyat 1940 yildan – 1991 yilgacha amalda bo'lgan Krill alifbosidagi milliy yozuvimiz ham ilmiy va metodik jihatdan sayqallangandi. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim jarayoni kutilgan darajada amalga oshirib kelindi. Yangi lotin alifbosidagi yozuvimiz mustaqillik davrida takomillashib kelayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Shu jihatdan "Husnixat" o'quv fani mazkur yozuvimizni takomillashtirishda yozuvning eng maqbul shakllarini ishlab chiqish, har bir so'zda o'zbek tiliga xos bo'lgan urg'u, tovush va ifodalarning aks etishini ta'minlash, o'zlashgan so'zlarning yangi o'zbek imlosi talablariga mos ravishda yozuv shaklini belgilash va boshlang'ich sinf o'quvchilarida so'zdan zavqlanish hamda o'qish vositasida tafakkurni rivojlantirish kabi istiqbolli amaliyotlarga ega ekanligini eslatib o'tish joiz. Misol uchun, ona tilimizda singarmanizm, ya'ni tovushlarning uyg'unlashuvi juda mukammal shakllangan va shu sababli har bir so'z bir necha ma'nolarni anglatadi. Mazkur o'quv fani kelgusida ana shu so'zlardan o'rinali foydalanish metodikasi bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarini qurollantirishi muhim istiqbolli amaliyotlardan biri hisoblanadi. Masalan, kompyuterli dastur asosida ushbu o'quv fanini o'qitishning innovatsion metodikalarini ishlab chiqish ham dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur masalalarni oliy pedagogik ta'lim jarayonida nazariy va metodik jihatdan hal etish hamda ularni amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga taqdim qilib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Husnixat" o'quv fanining istiqbolli amaliyotida uni o'qitishning zamонавиу innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish ham muhim o'rinali tutadi. Bunda ayniqsa, masofaviy ta'lim texnologiyasi, aralash

ta’lim texnologiyasi, raqamli ta’lim texnologiyasi va klaster ta’limi texnologiyasi asosida o‘qitishning metodikasini yaratish istiqbolli amaliyotlardan biridir. Chunki bu texnologiyalar mamlakatimizning eng chekka hududlaridagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tajribali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan qamrab olish imkonini beradi. Shahar hududlaridagi umumiyl o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich ta’lim jarayonida mazkur o‘quv fanini o‘qitish bo‘yicha tajriba-sinovdan o‘tkazilayotgan o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini qishloq hududlari umumiyl o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich ta’lim jarayoniga tadbiq etib borish amaliy jihatdan muhimdir. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, qaysi istiqomat qilishidan qat’iy nazar mazkur o‘quv fani bo‘yicha o‘qitishning innovatsion texnologiyalariga ega bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tajribasini keng ommalashtirish muhim o‘rin tutadi. Bundan tashqari, chiroyli yozuv va ifodali o‘qish ko‘nikmasini kutilgan darajada egallagan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining malakalarini ommalashtirib borish ham ushbu o‘quv fanining istiqbolli amaliyotlaridan biri bo‘lib turibdi. Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chiroyli yozuv va ifodali o‘qish ko‘nikmasini teng va ommaviy darajada tarkib toptirish imkonini beradi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bu o‘quv fanini o‘qitishning zamonaviy va innovatsion texnologiyalarini yaratish kelgusida amalga oshiriladigan eng muhim faoliyatlardan biridir.

Mustaqillik davrida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini “Husnixat” o‘quv fani vositasida xattotlik san’ati asoslari bilan tanishtirish bo‘yicha muayyan harakatlar amalga oshirilib kelingan. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarda notanish matnlarni to‘g‘ri va chiroyli yozish hamda murakkab matnlarning xatosini to‘g‘rilash va ularni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmasini shakllantirishga asosiy e’tibor qaratilganligini eslatib o‘tish joiz. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga zavq beradigan va ularni san’at olamiga olib kiradigan xattotlik san’ati bilan tanishtirishda mazkur o‘quv fani muhim

istiqbolli amaliyotga ega. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ba'zi boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn yozuvi yoki ifodali o'qish ko'nikmasi nihoyatda chiroli hamda talablarga mosligi bilan ajralib turadi. Bunday o'quvchilarda xattotlik san'atining dastlabki elementlari mavjudligiga e'tibor berish lozim. Chunki milliy Pedagogikamiz tajribasida aynan misol uchun, chiroli yozish ko'nikmasi vositasida o'quvchilarni shaxs sifatida voyaga yetkazish an'analari mavjudligini eslatib o'tish lozim. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) "Boburnoma" asarida davlatining poytaxti Agra shahrida turib o'g'li Humoyun Mirzodan, ya'ni Kobul hokimidan maktub olganligini yozadi. Javob xatida Bobur Mirzo o'g'lini quyidagilarni yozib yuboradi: "Xat yozuvning u qadar chiroli emas, ko'proq yozuvni mashq qil. Undoshli harflarni turli shakllarda yozishga e'tibor ber. Yozuv yozganingda qoidalarga amal qil, tez va chiroli yoz. Sening yozganlaringni o'zgalar qiynalib o'qimasin va sening chiroli yozuvning bilan zavqlansin. Chunonchi, donishmandlar demishki, yozuv – odamning qalb ifodasıdır. Bularni unutma".¹¹ "Husnixat" o'quv faniga doir bunday tajribalar Pedagogikamiz tarixida yozuvning shaxs tarbiyasidagi tutgan o'rnini belgilab ko'rsatadi. Shu sababli mazkur o'quv fanining eng muhim istiqbolli amaliyotlaridan biri o'quvchilarni husnixat asoslarining dastlabki namunalari vositasida tarbiyalashdan iborat.

Diqqat qilinsa, "Husnixat" o'quv fanining istiqbolli amaliyoti muhim yo'nalishlarni qamrab oladi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bu istiqbolli amaliyot yo'nalishlarini o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib "Husnixat" o'quv fanining istiqbolli amaliyotida mazkur predmetning boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari bilan bog'liqligi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini amaliy faoliyatga tayyorlashi va jamiyatimizda chiroli yozuv hamda ifodali o'qish malakasini yuksaltirishdagi yo'nalishlari muhim o'rinni tutadi.

¹¹ Қаранг: Захириддин Мұхаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: "Юлдүзча". 1989

Bularning barchasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan idrok etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Savollar va topshiriq:

1. "Husnixat" o'quv fanining boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari bilan o'zaro bog'liqligi asoslarini nimalar tashkil qiladi?
2. "Husnixat" o'quv fanining o'quvchilar faoliyatidagi amaliyoti deganda nimalarni tushunasiz?
3. "Husnixat" o'quv fanining istiqbolli amaliyotining muhim yo'nalishlari nimalardan iborat?
4. Mazkur o'quv fanining istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha konspekt tayyorlang va ularni o'zlashtiring.

Xulosa

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan eng muhim vazifalardan biri boshlang‘ich ta’lim sifat ko‘rsatkichlarini yuksaltirish va mazkur ta’lim bosqichi mazmuniga tajribadan o‘tgan hamda dunyo miqyosida e’tirof etilgan xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etishdir. Shu sababli 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayoniga yangi metodikalarni joriy etish hamda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini bugungi kun talablari asosida tarkib toptirish vazifalari ijrosiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bularning barchasi boshlang‘ich ta’limda o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonini takomillashtirish, yangi metodika va texnologiyalarni joriy etish hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy yetukligini ta’minlab borishni taqozo etadi. Mazkur masalada “Husnixat” o‘quv fanini bugungi kun talablari darajasida o‘qitish va uning boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari o‘rtasida tutgan o‘rnini idrok etish taqozo etiladi. Shu jihatdan mazkur tadqiqotimizda qo‘yilgan masalalar bo‘yicha quyidagi xulosalarga keldik:

1. “Husnixat” o‘quv fani asoslarini davlat ta’lim standartlari va talablari asosida ishlab chiqilgan o‘quv reja va dasturlar, zamonaviy talablar asosida yaratilgan darsliklar tashkil qiladi. Bu o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari chiroyli yozish, ifodali o‘qish va estetik ko‘nikmali bo‘lish imkoniyatlariga ega bo‘lib kelmoqda. O‘quv fanining nazariy asoslari va tarixi asrlar davomida milliy Pedagogikamiz tajribasidan o‘tib kelgan. Shu sababli pedagogik tajribamizda chiroyli yozuv va ifodali o‘qish ko‘nikmasi bilim olishning birlamchi bosqichi sifatida qabul qilingan.

2. “Husnixat” o‘quv fani o‘quvchilarda bilimga bo‘lgan qiziqish, axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirish va mustaqil faoliyatga tayyorlash ko‘nikmalarini tarkib toptiradi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda ushbu fanni o‘qitishning samaradorligi va ko‘rsatkichlari boshqa boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatishini

idrok etish lozim. Aynan bu fanni o'zlashtirish boshlang'ich ta'limning mazmunlaridan birini tashkil qiladi. Shu jihatdan keyingi paytlarda bu o'quv fanining o'qitish metodikasi va texnologiyalarini takomillashtirib borish jarayoni kechayotganligini eslatib o'tish joiz.

3. "Husnixat" o'quv fani boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyasi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu fan boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4 K modeli bo'yicha kollabaratsiya (jamoa bo'lib ishlash), kommunikatsiya (ta'lim sharoiti va muhitidan oqilona foydalanish), kreativ (ijodiy va mustaqil fikrlash) va kretisizm (voqeilik va hodisalarga tanqidiy munosabatda bo'lish bilan mustaqil faoliyatga tayyorlanish) ko'nikmalarini tarkib toptiradi. Shu sababli 2023-2024 o'quv yilidan boshlab mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarida ana shu ko'nikmalarni tarkib toptirish jarayoni yo'lga qo'yildi. Bunday ko'nikmalar mazkur o'quv fanining pedagogik tajribasida mavjud bo'lganligini ta'kidlab o'tish lozim.

4. "Husnixat" o'quv fani boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'zaro bog'lovchi, chiroyligi va tez yozish, ifodali va tushunarli o'qish vositasida o'quvchilarini ta'limning keyingi bosqichi va turlariga tayyorlash, ularni ta'lim, tarbiya va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish amaliyotiga ega. Bunda o'quvchilarining bilim va ko'nikmalari aynan mana shu o'quv fani vositasida maqsadli rivojlantiriladi. Shu sababli tajribali pedagoglar bu o'quv fanini boshlang'ich ta'lim o'quv fanining tashrif qog'ozni sifatida qabul qiladi.

5. "Husnixat" o'quv fani pedagogikamiz tarixi va tajribasida mavjud bo'lgan xattotlik san'ati asoslari bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarini birlamchi tarzda tanishtiradi. Bunda lotin alifbosiga asoslangan alifboning o'ziga xos xususiyatlari, harflarning yozilish shakllari va o'qilish talablari, yozish va o'qish vositasida o'quvchilarining his-tuyg'ularini rivojlantirish, ularni san'atdan zavqlanish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Chunki Sharq pedagogikasida "Chiroyligi yozuv va o'qib tushunish

inson qalbining namoyon bo‘lishidir” mazmunidagi hikmat mavjud bo‘lib, asrlar davomida unga amal qilib kelinmoqda.

6.XX asrdan boshlab G‘arb mamlakatlarida ham husnixat savodxonligiga qat’iy e’tibor berila boshlandi. Chunki texnika va texnologiyaning rivojlanishi natijasida insoning layoqati va qobiliyatini o’stiruvchi husnixat savodxonligi zaruriy masalalardan biriga aylandi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’limda stretegik rivojlanishni amalga oshirish rejalashtirilayotganligini eslatib o’tish joiz.

7.“Husnixat” o‘quv fani bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nazariy bilim, kasbiy ko‘nikma va metodik faoliyat malakalarini tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun oliv pedagogik ta’lim jarayonida mazkur o‘quv fani yangi texnologiyalar asosida o‘qitilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

8.“Husnixat” o‘quv fani asoslari bo‘yicha yangi avlod ilmiytadqiqlarini yaratish ham dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada yangi ishlanmalarini amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir.

“Husnixat” o‘quv fanini o‘zlashtirish bo‘yicha amaliy mashqlar¹²

Birinchi sinf o‘quvchilari bilan tayyorgarlik mashqlarini to‘g‘ri olib borish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

1. Partada to‘g‘ri o‘tirishga, avtoruchkani to‘g‘ri ushlashga va daftarning holatini to‘g‘ri tutishga o‘rgatish.
2. O‘quvchilarning husnixatga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish.
3. Bolalarning taqqoslash va chamalash qobiliyatlarini oshiruvchi mashqlarni bajarish.
4. Qo‘l va barmoq muskullarining harakatini oshirish.

Tayyorgarlik mashqlarini bajarish uchun o‘quvchilarni qora va rangli qalamlar, flomaster hamda yozuv daftari bilan ta’minlash

¹² Ўқув-услубий қўлланманинг мазкур бўлимини ёзишда М.Ғуломов, К.Турсунова, Д.Пўлатова томонидан тайёрланган “Чиройли ёзув малакаларини шакллантириш” услубий қўлланмасидан (Т.,2013) ижодий фойдаланилди.

lozim. O'qituvchining bu davrda rangli bo'rlardan foydalanishi yaxshi natijalar beradi.

Tayyorgarlik davrida o'tkaziladigan mashqlarni guruhlarga bo'lib, avval sodda, keyin murakkabroq mashqlarni bajarish lozim.

Mashqlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh mashqlari:

Darsning maqsadi. O'quvchilarni daftarning chiziqlari bilan tanishtirish va nuqtalarni ko'z bilan chamlashga o'rgatish.

Birinchi vazifa. O'quvchilarda bir xil masofada nuqtalar qo'yishga o'rgatish.

Ikkinci vazifa. O'quvchilarni daftarning qiya holati bilan tanishtirish. Bolalarga oldin daftarni tik, keyin esa qiya qilib qo'yish topshiriladi (daftarning pastki chap burchagi ko'krak o'rtasiga to'g'ri bo'lishi lozim), so'ngra daftarning qiya va tik holatlari solishtirib ko'rsatiladi hamda yozuvning qiyaligi daftarning holatiga taalluqli ekanligi tushuntiriladi.

Uchinchi vazifa. O'quvchilarning qalam ushlashlari tekshirib chiqiladi va qizil qalam bilan bir qator nuqtalar qo'yib chiqish topshiriladi.

Ikkinci guruh mashqlari:

Darsning maqsadi. Chiziqlarning qiya shaklda yozilishini ko'rsatish va chiziqlar orasidagi masofani to'g'ri topishga o'rgatish.

Vazifa. Kichik harflar yoziladigan chiziqlar orasiga qiya tayoqchalarni yozdirib mashq qildirish.

O'qituvchi bu mashqni doskada namuna asosida ko'rsatib beradi. O'quvchilar esa qizil qalamda qiya tayoqchalarni chizadilar. Ular bir qator yozib bo'lganidan so'ng tekshirib chiqadilar va tahlil qilinadi. Yozilgan tayoqchalarning bir xillagini tekshirish uchun ularning o'rtasiga boshqa rangdagi qalam bilan nuqtalar qo'ydiriladi.

Agar nuqtalar barobar masofada bo'lsa, o'quvchi vazifani to'g'ri bajargan, barobar masofada bo'lmasa, xatoga yo'l qo'ygan bo'ladi.

Xatoga yo'l qo'ygan o'quvchilarga shu mashqni qayta bajartirish mumkin.

Uchinchi guruh mashqlari:

Darsning maqsadi. O'quvchilarga "baland", "yuqori" va "past" tushunchalarini anglatish. Chiziqlar orasini to'g'ri topishga o'rgatish.

Vazifa. Har xil balandlikdagi qiya tayoqchalarni yozdirish. O'qituvchi doskaga daftarning yuqori chizig'idan pastki chizig'igacha uzun tayoqchalar tushirishni, tayoqchalarning teng o'rtasini topib, nuqta qo'yishni aytadi; uzun tayoqchaning yarmidan, ya'ni nuqta qo'yilgan yeridan, uning yoniga kichik qiya tayoqcha chizishni topshiradi. Uzun tayoqchalarning o'rtasiga qo'yilgan kichik tayoqcha yotiq chiziq bilan bog'lanadi.

Doskada tayoqchalarning baland va pastligi taqqoslab beriladi. Shundan so'ng o'quvchilar vazifani bajarishga kirishadilar.

To'rtinchi guruh mashqlari:

Darsning maqsadi. Har xil shakl va qiyaliklarga ega bo'lgan harf elementlarini yozishga o'rgatish.

Birinchi vazifa. Uzun tayoqcha elementini bir necha bo'laklarga bo'lib, ularning orasidagi masofani bir xilda saqlashga o'rgatish.

Ikkinchi vazifa. Tayoqchalarning past-balandligi, oralaridagi masofaning tengligi tekshirilib chiqilgandan so'ng rangli qalam bilan har xil qiyalikka ega bo'lgan kichik baliqcha shaklini ifodalovchi chiziqlar chiziladi.

O'quvchilar bu mashqni bajarish orqali masofalarni chamalashga va qiyaliklarni to'g'ri saqlashga o'rganadilar.

Beshinchi guruh mashqlari:

Darsning maqsadi. O'quvchilarga "keng" va "tor" tushunchasini anglatish; tagi ilmoqli kichik tayoqcha shaklidagi elementni yozishga o'rgatish.

Birinchi vazifa. Tagi ilmoqli kichik tayoqcha elementini har xil rangli qalamda bajarish. Masalan, 3 ta tayoqcha qizil rangda va 3 ta tayoqcha ko'k rangda bajarilsa, o'quvchilarning qiziqishlari ortadi.

Ikkinchi vazifa. O'tkir burchak hosil qilib yozilgan element bilan tagi ilmoqli kichik tayoqcha elementlarini qiyoslab ko'rsatish. O'quvchilarga bu qoidalar tushuntirilgandan so'ng bir qatorga oralatib bitta kichik to'g'ri tayoqcha va bitta tagi ilmoqli kichik tayoqcha elementi yozdiriladi.

Oltinchi guruh mashqlari:

Darsning maqsadi. Cho'zinchoq doira shaklini chizishga o'rgatish.

Vazifa. Cho'zinchoq doira bilan tanishtirish va uni aylana bilan qiyoslab ko'rsatish.

O'qituvchi doskada aylana va uning yoniga cho'zinchoq shaklini chizib ko'rsatishi mumkin.

Ularning bir-biridan farqini tushuntiradi: aylana-bu koptok yoki tarvuzga, cho'zinchoq doira esa qovun yoki olxo'ri shakliga o'xshaydi. So'ng o'qituvchi cho'zinchoq doira shaklini tik va qiya holatda chizib ko'rsatadi. O'quvchilar uni solishtirib ko'radilar: biri tik holatda, ikkinchi esa chap tomonga qiya qilib yozilgan.

O'qituvchi cho'zinchoq doira shakldagi bu elementni bir tomonga zich qilib chizish shart ekanligini ta'kidlaydi. O'quvchilar uning yozilishini bir necha marta havoda bajarganlaridan so'ng yozishga ruxsat etiladi. O'quvchilar cho'zinchoq doiraning balandligi ham tayoqcha bilan barobar bir qatorda ikkita kichik tayoqcha va bitta cho'zinchoq doira shaklini yozadilar.

Cho'zinchoq doira shaklining orasiga qo'yilgan bu kichik tayoqchalar uning qiyaligini saqlab yozishga yordam beradi.

Yettinchi guruh mashqlari:

Darsning maqsadi. Kichik harf elementlarining qo'shib yozilishini va ularning orasidagi masofani to'g'ri saqlashga o'rgatish.

Vazifa. Tagi ilmoqli kichik tayoqcha elementini mashq qildirish va ularni bir-biriga qo'shib yozishga o'rgatish.

Bu topshiriqning to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilganini ikki element o'rtasidagi bo'shliqqa boshqa rangli qalam bilan nuqta qo'ydirish orqali ham bilish mumkin.

Agar o'quvchi vazifani to'g'ri bajargan bo'lsa, nuqta harf elementlari orasiga to'g'ri joylashadi, aksincha, noto'g'ri bo'lsa, nuqta uchun joy qolmaydi. Bunday usul bilan vazifani tekshirish ularda uchraydigan xatolarni oldini olishning birdan bir to'g'ri yo'lidir.

Sakkizinchi guruh mashqlari:

Darsning maqsadi. “Uzunroq” va “kaltaroq” tushunchasini anglatish.

Vazifa. Ikki xil uzunlikdagi tayoqcha elementlarini yozib ko'rsatish.

Bu vazifa ham rangli qalam bilan bajariladi. O'quvchilar bu tayoqchalarning qaysi biri uzun, qaysi biri kalta ekanini solishtirib ko'radilar.

To'qqizinchi guruh mashqlari:

Darsning maqsadi. Harf elementlarini bir qatorga to'g'ri joylashtirishga o'rgatish.

Birinchi vazifa. O'quvchilarga bir qator cho'zinchoq doira shaklini yozdirib mashq qildirish.

Ikkinci vazifa. O'quvchilarga ko'k rangli qalam bilan cho'zinchoq doira shakli ichiga har xil masofada tayoqchalar chizib chiqishni topshirish.

Har bir tayoqcha olma shaklining o'rta qismini, ya'ni uning o'ng yoki chap tomonlari vazifasini bajaradi. Olma shaklining tashqarisiga ham kichik tayoqcha chiziladi, bu esa uning bandi hisoblanadi.

Tayyorgarlik mashqlarini bunday tashkil etish o'quvchilarning avtoruchka bilan yozishga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Ammo tayyorgarlik davrida o'quvchilar yozuvga taalluqli bo'lgan hamma malakalarni to'liq hosil qiladilar deb bo'lmaydi. Shuning uchun ayrim tayyorgarlik mashqlarini harflarni o'rgatish davrida ham olib borish mumkin. Masalan, kichik "y" harfini yozishga o'rgatishda uning ikkinchi tagi tugunchakli elementini yozishga qiynalishlari mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan tayyorgarlik mashqlarini o'qituvchi o'quvchilarning iqtidoriga qarab biroz soddalashtirishi yoki, aksincha, murakkabroq qilib yozdirishi mumkin.

"Yozuv daftar" lari harflarning eng ko'p qo'llaniladigan asosiy elementlari qo'shib yozish uchun mo'ljallangan ayrim mashqlar ham berilgan. Bu mashqlar o'quvchilarning qo'l harakatini uzmasdan qo'shib yozishlarida katta rol o'ynaydi.

Ayrim mashqlarda harf elementlari nuqtalar bilan qo'shib berilgan, bunday vazifa o'quvchilarning chamlash qobiliyatlarini o'stirishda katta yordam beradi.

"Yozuv daftar" laridagi mashqlarining ko'pchiligidagi elementlar aralash beriladi, chunonchi, bir qatorda kichik tayoqcha, cho'zinchoq doira shakli va boshqalar.

O'quvchilar uchun tanish bo'lgan elementlarni bunday aralash holda berish ularni yozuvga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi, chunki bir qator yozuvda bir necha xil element takrorlanadi. Mashqlarni bunday tuzish takrorlash vazifasini ham bajaradi.

"Yozuv daftari" da namunalar berilgan bo'lsa ham sinfda husnixat mashqlari o'qituvchi tomonidan doskada yozib ko'rsatilgan namunalar asosida olib boriladi. Shuning uchun har bir o'qituvchidan harf shaklining yozilishini yaxshi bilish talab etiladi.

"Yozuv daftari" da berilgan namunalar bilan o'qituvchining yozib ko'rsatgan namunasi o'rtasida farq bo'lmasligi kerak.

O'qituvchi yangi materialni to'liq tushuntirib bergach, shu materialni "Yozuv daftari" dan qarab yozishga ruxsat etadi. O'tilmagan harf elementi yoki harfni mustaqil yozishga ruxsat etilmaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son farmoni bilan tasdiqlangan "2022 – 2026 yillarda xalq ta'lmini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur". // www.ziyonet.uz
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022
3. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2006
4. Bezrukova V.S. Pedagogika. Feniks. 2013
5. Djo'rayev R., Turg'unov S. Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: "Fan". 2001
6. Jabborova O., Umarova Z., Boboxodjayeva L. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. – Toshkent, 2021
7. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023
8. Jumanova F va boshq. Umumiy pedagogika asoslari. – Toshkent, 2021
9. Ziyomuhamedov B. Ilg'or pedagogik texnologi: nazariya va amaliyot. –Toshkent. 2001
10. Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. – Toshkent. 2012
11. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – Toshkent. 2010
12. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent. 2004
13. Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021
14. Nosirov A. Ta'lim mazmuniga qaratilgan o'zgarishlar. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 2023 yil, 13 iyul soni.
15. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent. 2000

16. Safarova R., G'ulomov M., Inoyatova M. Savod o'rgatish darslari. – Toshkent. 2012
17. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. – Toshkent. 2000
18. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent. 2000
19. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – Toshkent. 2006
20. Toxtaxodjayeva M.X. va boshq. Pedagogika. – Toshkent. 2010
21. Xamzayev X. Raqamli texnologiya mazmuni. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Jizzax, 2020.
22. Hasanboyev J. Va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent, 2009.
23. Xodjayev B.X. O'quvchilarni mustaqil fikrlashini shakllantirish yo'llari. – Toshkent. 2008
24. Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent. 2017
25. Yusupov M. O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. – Toshkent. 1994
26. G'ulomov M. To'g'ri va chiroyli yozing. Mashq daftari. – Toshkent, 2010
27. G'ulomov M. Yozuv daftari. – Toshkent. 2010
28. G'ulomova X., Tursinova K., Po'latova D. Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish. – Toshkent. 2013

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.tdpu.uz
5. www.cspu.uz

Glossariy

Yozuv – insoniyat madaniyatining hosilasi bo'lib, u to'rt ming yillik tarixga ega. Mamlakatimizda dastlab yozuv shakllari qoya toshlarga yozilgan va har bir harf o'z ma'nosiga ega bo'lgan. Mamlakatimiz yozuv shakllari O'rxun – Enasoy (tepadan pastga qarab yoziladi), arab (o'ngdan chapga qarab yoziladi), rus (chapdan o'ngga qarab yoziladi) va lotin (chapdan o'ngga qarab yoziladi) alifbolariga asoslangan yozuv shakllari amalda bo'lib kelgan. Bugungi kunda "Husnixat" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining chiroyli, tez va qulay yozish ko'nikmalari shakllantirilmoqda. Ayni paytda, bunday ko'nikmaga ega bo'lish o'quvchilarning fikrini o'stiradi, ularda bilim olish va o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

O'qish – yozuv vositasida so'z, ibora va gaplarni to'g'ri talaffuz qilish hamda tushunish vositasi. O'qish ko'nikmasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Husnixat" o'quv fani vositasida shakllantiriladi. Bunda ifodali, tez va ravon o'qish, o'qilgan matn ma'nosini tushunish ko'nikmalarini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Ayni paytda, tez o'qish bo'yicha tajribalar mavjudligini eslatib o'tish joiz. Misol uchun mashhur Abdulla Qodiriy yuz sahifalik matnni o'n besh daqiqada, Albert Eynshteyn ikki yuz sahifalik matnni o'n daqiqada o'qiganligi ma'lum. O'qish jarayoni shaxsda, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmasini tarkib toptiradi. Shu sababli tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari notanish matnlar asosida o'quvchilarning o'qish ko'nikmasini rivojlantirish ishiga alohida e'tibor qaratadi.

Matn – yozuv asosida ifodalangan fikrlar majmuidir. "Husnixat" o'quv fanining asosiy vazifalaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni ifodali o'qish va uning mazmunini tushunish ko'nikmasini tarkib toptirishdan iborat. 3-4 sinflarda boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil matn tuzish ko'nikmasiga o'rgatiladi. Shu sababli bunda mazkur o'quv fanidan tashqari "Ona tili va o'qish

savodxonligi” o‘quv fanining imkoniyatlaridan ham keng foydalaniadi.

Husnixat - boshlang‘ich ta’limning asosiy o‘quv fanlaridan biri. Mazkur o‘quv fanining asosiy vazifasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chiroyli, tez va qulay yozish hamda matnni ifodali, tez va tushunib o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu o‘quv fani mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limida o‘ziga xos tajribaga ega bo‘lgan predmetlardan biri hisoblanadi. Aynan ushbu o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilim va tarbiya olamiga olib kiriladi.

Onaxon Jabborova
Gulhayo To'rayeva

HUSNIXAT – SIFATLI TA'LIM ASOSI
O'quv-uslubiy qo'llanma

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A.Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й
Bichimi 60x84¹/₁₆. "Cambria" garniturasi, kegli 16.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 3,75. Adadi
100 dona. Buyurtma № 1152

Zebo prints MCHJda chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar, Yashnobod tumani,
22-harbiy shaharcha

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN